O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. Yozma adabiyotning vujudga kelishi barobarida bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan asarlar ham paydo bo'ldi. Lekin bu maxsus bolalar adabiyoti vujudga keldi degani emas. Negaki, bunday asarlarning aksariyati didaktik xarakterda bo'lib, ularda kattalarning hayot va tarbiya haqidagi mulohazalari berilgan. Bu xildagi asarlarni bolalar adabiyoti tarzida emas, bolalar kitobxonligi tarzida qarashni lozim deb bilamiz. Chunki bolalar adabiyoti tushunchasi bilan bolalar kitobxonligi tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Masalan: S. Ayniyning «Esdaliklar» memuar asari, Oybekning «Bolalik», A. Qahhorning «O'tmishdan ertaklar» asarlari bolalar adabiyotining namunalari sanaladi. Aslida bu asarlarning qahramonlari bolalar (Sadridin, Mus, Abdulla) bo'lsalar-da, voqelik kattalar didi bilan idrok qilingan. Demak, bolalik muammolari kattalargagina xos badiiy tafakkur sintezidan o'tkazilib o'sha davrga munosabat bildirilgan. Bunday asarlar bolalar yosh xususiyatiga dunyoqarashi bolalar tili gapirish manerasiga xos belgilarga rioya qilinmagan. Keyinchalik bolalar uchun alohida adabiyot yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'zbek bolalar adabiyoti uchun maxsus adabiyotni vujudga keltirish harakatlari XX asr boshlarida bolandi. Bu haraktning boshlovchilari Hamza, Ayniy, Avloniy, Azjiy kabilar bolalarni ma'rifatga chorlovchi yangi usuldagi maktablar ochdilar va darsliklar yaratdilar. Albatta bu darsliklar bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishiga alohida e'tibor berdilar.

30 - yillarda G'.G'ulom, Oybek, H. Olimjon, Uyg'un kabi yozuvchilar bilan bir qatorda bolalar adabiyotining Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Adham Rahmat, Shukur Sa'dulla, Ilyos Muslim, Quddus Muhammadiy kabi vakillari ham kirib keldilar. Bular o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirishda muhim hissa qo'shdilar. Mana shu yillar bolalar adabiyotini davrlashtirishga ham katta e'tibor qaratildi.

Bolalar adabiyoti pedagogik –psixologik xususiyatlariga qarab 3 davrga bo'lindi.

Bolalar adabiyotini davrlashtirish quyidagisha:

1. **Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha)**
2. **Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi. (7 yoshdan 11-12 yoshgacha)**
3. **O'rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi. (13-17 yoshgacha)**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligining xususiyatlaridan biri

bola yetti yoshga tuguncha atrofdagi hayotiy yangiliklarni tez ilg'aydigan bo'lib o'sa boshlaydi. Bu ishlarni faqat bolani kelajakka tayyorlash deb tushunish kamlik qiladi.

Chunki bolalik – inson uchun navqironlik fasli hamdir. Insondagi salbiy va ijobiy fazilatlar xuddi shu davrda shakllana boshlaydi. Darhaqiqat, hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolalikdagi har qanday taassurot xotiradan o'chmaydi. Demak, bolani kichikintoyligidan so'z san'ati bilan sehlash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o'qishni bilmaydilar. Ular uchun dunyo noma'lum. Ularda ana shu noma'lum narsalarni bilishga intilish, qiziqish kuchli bo'ladi. Bunda ota-onalar, bog'cha tarbiyachilari katta rol o'ynaydilar. Bu yoshdagi bolalar kattalarga taqlid qiladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitoblarda hayvonlar, parrandalar, hashoratlar, o'simliklar bo'lsalarda ular odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi, Sog'lom bola 7-9 oyligidayoq ayrim tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydilar: qo'lingni ber, tur, o'tir va xokozo. Bir yoshga kirgan bola 10 ga yaqin so'zni tushunadi va ayta oladi. Ikki yoshda esa so'zlar miqdori 300 ga yetadi. Endi u "U nima?", "Bu Kim?" savollar takrorlay boshlaydi. 3 yoshga to'lganda bola o'rgangan so'zlar miqdori 1200-1300 tani tashkil qiladi. Endi u grammatik qoidalarsiz o'zi so'z yasay boshlaydi, so'zlarni mantiqan aloqaga kiritib fikrini bayon qiladi. Umuman maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi asosan ota-onalar va bog'cha tarbiyachilari tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan bola dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, bizni qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar, bog'chalarda esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ularga badiiy asarlardan parcha o'qib berishlari lozim. Bolalarga o'qib beradigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi talab etiladi. Bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligi ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqealar va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda ularning yoshi, ruhiyati, saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagi bolalar psixologlarning gaplariga qaraganda 3600 tacha so'zdan foydalanar ekanlar. Bolalar 7-9 yoshlarida hayvonlar, qushlar, hashoratlar, o'simliklar to'g'risidagi ertaklarga juda qiziqadilar. Yozuvchilar insonlar bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ularni gapirtirish orqali amalga oshiradilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilar va ota-onalar yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, bu yoshdagi bolalar esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari va mustaqil o'zlari o'qib o'rganadilar. Bu yoshdagi bolalar ko'proq tevarak atrofdagi turli voqea hodisalarga qiziqadilar. Endi ular mustaqil ravishda sehlri ertak, fantastik ertak, sarguzasht, hikoya va dostonlarni sevib o'qiydilar. "Zumrad va Qimmat" ertagi, Olloyorning "Fazogir chumoli", Anvar Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon", Q. Muhammadiyning "Erkinjon oyga chiqibdi" kabi asarlari shu yoshdagi bolalarga mo'ljallab yozilgan.

O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ravishda kitob o'qib, o'qigan kitoblari qahramonlarining hatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar va ular harakatlarini takrrlaga hozirlanadilar. Bu yoshdagi bolalarga o'tmish va kelajak haqidagi asarlarni o'qish tavsiya etiladi. SHiroq, Tumaris, kabi afsonalar bilan bir qatorda Oybek, G'.G'ulom, Zafar Diyor,

Q.Muhammadiy, Anvar Obidjon, T.Adashboev va boshqa ijodkorlarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi sara asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Farobiy, Beruniy, Yassaviy, Navoiy, Bobur kabilarning pand-nasihat ruhidagi yozilgan asarlari bolalar dunyoqarashini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshdagi bolalar kutubxonalardan mustaqil ravishda o'zlariga ma'qul ertak, doston kitoblarni olib o'qiy boshlaydilar. Masalan : "Uch og'a-ini botirlar", "Egri bilan To'g'ri", "Donishmand qiz" kabilar. Shu orqali kichkintoylar olg'a intilishga harakat qiladi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi.

YUSUF XOS HOJIB

XI asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda (Qoshg'arda) va Markaziy Osiyo hududida qoraxoniylar saltanati mustahkamlandi. Bu saltanatning markazi Qoshg'ar (O'rdukent) bo'lib, uning shimolida Bolosog'un (Kuzo'rdu), g'arbida Samarqand kabi yirik siyosiy va madaniy markazlar bor edi. Yirik shoir va faylasuf Yusuf Xos Hojib xuddi mana shu davrda yashab ijod qildi.

Yusufning qachon va qaerda tug'ilgani, vafot etgan yili ma'lum emas, uning asaridan ma'lum bo'lishicha, vatani Bolosog'un bo'lgan. Uning «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga eltuvchi bilim») asari 1069-1070 yillarda Qoshg'arda yozib tugallangan.

Shoir o'z asarini qoraxoniylar hukmdori Tamg'ach Bug'roxonga taqdim qiladi. Asar Bug'roxonga ma'qul bo'ladi va shoirga Xos Hojiblik lavozimini beradi.

Yusuf Xos Hojib bu asarni yozish uchun katta tayyorgarlik ko'radi: Chin (Xitoy), Mochin (Sharqiy Turkiston), Eron va Turon (Turkiston va umuman turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalar) bo'ylab safar qiladi. U erlardagi turli madaniy-adabiy, tarixiy yodgorliklarni o'rganadi. Shuning uchun ham u asariga o'z davri uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan rang-barang mavzularni qamrab oladi.

Shoir qalamga olgan mavzularning barchasini bu o'rinda sanab o'tishning imkoni yo'q. Shu sababli asarda ilgari surilgan etakchi g'oya, asarning maqsadidan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatni idora etish usullari, oddiy kishilardan tortib davlatni bevosita idora etuvchi yuksak martabali mansabdorlargacha, shuningdek, boshqa turli tabaqa va toifa vakillarining (masalan, harbiylar, savdogarlar, dehqonlar, hunarmandlar kabi) fe'l-atvorlari qanday bo'lishi lozimligi, ularning vazifalarini bayon etishdir.

Ko'rinib turibdiki, «Qutadg'u bilig» pandnoma janrining yirik va noyob namunasidir. Shuning uchun shoir nima haqda, kim to'g'risida yozmasin, faqat pand-nasihat qilish, uni to'g'ri yo'lga solish, foydali o'git berishni bosh maqsad qilib oladi.

Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining donishmandi, turli ilmlar bo'yicha bahs yuritishga qodir olimi, ilg'or fikrli kishisi bo'lgan. Mana shuning uchun ham u o'z asarida ilm-fan, kasb-hunar haqida, ularning kishilarga keltiradigan foydalari haqida ko'pgina ibratli fikrlar bayon qilgan.

Uning fikricha, aql-idrokli odamgina har bir ishning boshida bo'lishga loyiq. Johil yoki beg'am, bilimsiz va kaltabin kishilarning ish boshidan yiroq turganlari ma'qul. Chunki aql-idrok chegarasi yo'q ezgulikdir. Insoniyat taraqqiyotining barcha

davrlari uchun bir xilda ma'rifiy ahamiyat kasb etgan mana shu fikrni shoir bir to'rtlikning dastlabki ikki misrasida nozik did bilan bayon etgan:

Uquvli-idrokli bo'lsa qay odam,
Kishi deb atagin, maqtagin har dam.

Shoshqaloqlik, engil-elpi ish qiluvchi kishilarni biron ishning boshiga qo'yib bo'lmaydi. Chunki ular aslida nodondirlar. Kishi zakovatli, aqlli, bilimli bo'lsa, u yomon bo'lsa ham, yaxshi degin, uning yoshi kichik bo'lsa ham, uni katta deb bil va ulug'la, deb yozadi shoir.

Yovuzni ezgu tut, kichikni katta
Uquv-idrok, bilim bo'lsa unda jam.

Asar asosida to'rtta narsa yotadi. Bu haqda shoir shunday yozadi:

Biri to'g'rilikka tayanch – Adolat,
Biri Davlat erur, u qutli g'oyat.
Uchinchi – ulug'lik Aql ham zako,
To'rtinchi – Qanoat erur bebaho.

Asarda bu to'rt narsa alohida obrazlar orqali berilgan. Masalan, Adolat Kuntug'di deb nomlangan va asarda podsho (elig) vazifasida keladi. Davlat Oyto'ldi obrazida berilgan. Asarda u vazir vazifasini ado etadi. Zakovat, aql esa O'gdulmish obrazida mujassamlangan. U Oyto'ldining (vazirning) o'g'li sifatida namoyon bo'ladi. Qanoat esa O'zg'urmish obrazida berilgan. U asarda vazirning qarindoshi sifatida namoyon bo'ladi.

«Qutadg'u bilig»da yoritilgan mavzular qanchalar keng qamrovli bo'lmasin, ular yagona bir masala – inson va uning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi o'rni masalasiga borib bog'lanadi. Asarda oddiy mehnatkash inson alohida muhabbat bilan tasvirlangan. Ayniqsa, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar haqidagi boblar diqqatga sazovordir.

Asarda yoritilgan barcha masalalar Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish va O'zg'urmishlarning o'zaro suhbatlari, o'git va nasihatlar orqali bayon etiladi.

«Qutadg'u bilig» asosan masnaviy (ikkilik) shaklida yozilgan bo'lsa ham, unda ba'zan turkiy xalqlar she'riyatida keng tarqalgan to'rtlik bandlar ham uchraydi.

Ma'lumki, mazmunan bir fikrni izchil davom ettiruvchi yagona qofiya tartibiga ega bo'lgan, to'rt misradan tashkil topgan she'riy band to'rtlik deb yuritiladi. Agar to'rtliklardagi misralarni o'zaro birlashtirib turuvchi qofiyalangan so'zlar shaklan bir xil, ammo mazmunan butunlay boshqa-boshqa ma'nolarni anglatlsa, ya'ni omonim so'zlardan iborat bo'lsa, bunday qofiyalar **tajnisli qofiya** sanaladi.

Yusuf Xos Hojib aql-zakovat haqida so'zlar ekan, zakovatli kishilarni har qancha maqtasa va ulug'lasa arziydi, deb hisoblaydi. Bu haqda u quyidagi to'rtlikda shunday yozadi:

Qaysi bir kishida aql va zakovat bo'lsa,
Uni (haqiqiy) kishi deb atagin, qancha maqtasang maqta.
Zakovat, aql, bilim kimda etuk bo'lsa,
Yomon bo'lsa (ham) yaxshi de, kichik bo'lsa (ham) katta deb bil (ulug'la).

«Qutadg'u bilig»dan keltirilgan yuqoridagi to'rtlikda «o'g» so'zi birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralar oxirida takrorlanib, «aql», «maqta», «ulug'la» kabi ma'nolarni ifodalaydi. Demak, to'rtlik bir xil shakldagi, ammo butunlay boshqa-boshqa ma'nolarni anglatuvchi tajnisli qofiyaga asoslangan. Asarda shoir fikrini

go'zal obrazlar, hayotiy o'xshatishlar va betakror istioralar vositasida bayon etadi. Chunki u badiiy so'z qudratini, turkiy tilning imkoniyatlari kengligini yaxshi biladi. Bu haqda u asarda: «Men turkiy so'zlarni yovvoyi tog' kiyigidek bildim. Shunga qaramay ularni asrab-avaylab qo'lga o'rgatdim», - deb yozadi.

«Qutadg'u bilig» asari hijriy 462 yilda (milodiy 1069-1070-yillarda) yozilgan. Shoirning xabariga ko'ra, kitob o'n sakkiz oyda, ya'ni bir yarim yilda yozilgan. Hozir asarning Qohira, Vena hamda Namangandan topilgan nusxalari mavjud. Uning Namangan nusxasi 1971 yilda izoxlar bilan tilshunos Qayum Karimov tomonidan chop etilgan.

«Qutadg'u bilig» asari juda ko'p turkiy tillarga, shuningdek, rus, ingliz va nemis tiliga to'liq tarjima qilinib nashr etilgan. Asarning ayrim qismlari esa Evropaning juda ko'p tillariga tarjima qilingan.

Xullas, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari XI asrdagi mumtoz adabiyotimizning noyob namunasi bo'lganligi bilan birga ana shu davrlarda yashagan bobolarimizning yuksak madaniyatga, chuqur bilimga, hayratomuz falsafiy dahoga ega bo'lganliklarini namoyish etganligi bilan ham katta ma'rifiy-ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Yusuf Xos Hojib ijodi va uning «Qutadg'u bilig» asari filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To'xliiev tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

Savol va topshiriqlar:

1. *Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari qaysi adabiy asarga mansub?*
2. *Kitob qanday shaklda yozilgan?*
3. *Asardagi etakchi obrazlarni sanab ko'rsating va ularning ramziy vazifalarini aytib bering.*
4. *Asarning nechta nusxasi mavjud va ular qanday nomlanadi?*
5. *Ilk bor asar qachon, qaerda va kim tomonidan to'liq chop etilgan?*

ALISHER NAVOIY

(1441-1501)

O'zbek adabiy tilining asoschisi, ulug' shoir va mutafakkir, yirik davlat arbobi va madaniyat homiysi Alisher Navoiy 1441-yilning 9 fevralida (hijriy hisob bilan 844 yil ramazon oyining 17 kuni) Hirot shahrining Bog'i Davlatxona degan joyida tug'ilgan.

Alisherning otasi Fiyosiddin Muhammad «Kichkina Bahodir», «Kichik baxshi» laqablari bilan tanilgan bo'lib, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan hisoblangan. Onasi Qobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi edi.

Alisherning ota-bobolari temuriylar bilan emikdosh bo'lganlar va hamma vaqt temuriylar hokimiyatini mustahkamlashga yordam berganlar. Shuning uchun ular doim temuriylarning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lganlar. Xurosonning bo'lajak hukmdori, iste'dodli shoir Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi yaqin do'stlik va hamkorlikning ildizlari ham ota-bobolar o'rtasidagi ana shu yaqinlikka borib taqaladi.

Alisher bolaligidanoq o'tkir zehni, fahm-farosati bilan o'z tengdoshlari orasida alohida ajralib turardi. U to'rt-besh yoshligidanoq she'riyatga muhabbat qo'yadi. Chunki she'riyat muxlislari, taniqli shoirlar Alisherlar xonadonida to'planishib, she'rxonliklar qilib turar edilar. Qolaversa, yosh Alisherning tarbiyasida o'z zamonasining iste'dodli shoirlari bo'lmish tog'alari Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali Faribiylarning ta'siri katta bo'lgan. Alisher o'zi yashagan davr an'anasiga binoan boshlang'ich bilimlarni forscha manbalardan oldi. Chunki u davrlarda Saroy ahli fors-tojik tilini tan olib, turkiy tilni mensimas edi. Shu sababli Alisher maktabda Ganjaviy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Farididdin Attor asarlarini o'qigan, Qosim Anvar g'azallarini yod olgan. Mir Shohiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi yirik fors-tojik shoir va olimlarining ijodi bilan tanishgan, ulardan ilhom olib, o'zi ham ijod qilishga kirishgan edi.

Fazallarini dastlab fors-tojik tilida yaratgan Alisher ulg'aya borgan sayin o'z ona tilining boyligi hamda go'zalligini anglab, bevosita turkiy tilda she'rlar yoza boshlaydi. O'n besh yoshlarda u ikki tilda (fors-tojik va turkiy tillarda) ham asarlar yaratib, «zullisonayn» («ikki til egasi») shoir sifatida tanilib bo'lgan edi.

Alisher turkiy tildagi she'rlariga «Navoiy», fors-tojik tilida yozgan asarlariga «Foniy» taxalluslarini qo'ygan.

Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning xabar berishicha, bir kuni keksa shoir Lutfiy yosh bola Alisherdan yangi yozgan she'rlaridan o'qib berishni so'raydi. Alisher yozgan g'azallaridan birini o'qiydi. Fazalning birinchi bayti (matla'si) shunday edi:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

Bu baytdan ta'sirlangan Lutfiy: «Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda bitgan o'n-o'n ikki ming misra she'rimni shu bir g'azalga almashar edim», degan.

Navoiy 1469 yilga qadar Samarqandda turadi. Shu yili Hirot taxtini qo'lga kiritgan Husayn Boyqaro do'sti Navoiyni o'z ona yurtiga chorlaydi. U Husayn Boyqaro saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qilib, mamlakat obodligi va xalq farovonligi yo'lida katta ishlarni amalga oshiradi. U 1476 yilda vazirlik lavozimidan

voz kechib, ijodiy ishga sho'ng'iydi. U ko'plab lirik she'rlar yozib, bir nechta devonlar tuzadi. 1491-1498 yillar orasida o'zining turkiy tilda yozgan she'rlarini, dastlabki devonlaridagi lirik asarlarni jamlab, to'rt devondan tashkil topgan «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») nomli kulliyotini tuzadi. Bu lirik kulliyot to'rt devon, o'n olti janrdagi she'rlardan tarkib topgan bo'lib, birinchi devon «Faroyibus-sig'ar» 11437 misradan iborat 840 she'r, ikkinchi devon «Navodurush-shabob» 759 she'r, keyingisi «Badoyiul-vasat» 740 she'r, to'rtinchisi «Favoyidul-kibar» 793 she'rni o'z ichiga olgan.

Navoiy yashagan davrlarda Sharq adabiyotida besh dostonidan iborat «Xamsa» yozish an'anasi mavjud edi. Ilk xamsanavislikni ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Keyinchalik ana shu an'anani Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar davom ettirganlar. Ammo hali hech kim o'zbek tilida «Xamsa» yozishga jur'at qila olmagan edi. Bu baxtga 1483-1485 yillarda birinchi bo'lib Alisher Navoiy erishdi. Demak, Alisher Navoiy turkiy tilda to'rt devondan iborat ulkan kulliyot, besh dostonidan iborat «Xamsa» asarini yozib, o'zbek tilining ham badiiy go'zalligini, bu tilda ham ajoyib asarlar yozish mumkinligini amalda isbotlab berdi. Mana shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida tan olinadi. Navoiy ustoz hamsanavislarning yuksak san'atkorligini e'tirof etdi, xamsachilik an'analarini davom ettirdi. «Xamsa» tarkibidagi dostonlarning muqaddimasida o'zigacha xamsachilikda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgan salaflariga ehtiromini ifoda qilgan. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviyga, o'zi bilan deyarli bir vaqtda Xamsa yaratgan ustози Abdurahmon Jomiygа bag'ishlab maxsus boblar yozgan, ularni ulug'lagan.

Navoiy tarixiy manbalardan, xususan, xalq og'zaki ijodiga xos uslub va obrazlardan mohirlik bilan foydalangan holda ikki yildan ko'proq vaqtda 51 ming misradan ortiq besh dostonni yaratdi.

1483 yilda «Hayratul-abror» - falsafiy-didaktik dostonini; 1484 yilda «Farhod va Shirin» - ishqiy qahramonlik dostoni hamda «Layli va Majnun» - ishqiy romantik dostonini; 1485 yilda «Saddi Iskandariy» qahramonlik dostonini, «Sab'ai sayyor» - ishqiy sarguzasht dostonini yaratdi.

Bundan tashqari, Navoiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid qator asarlar ham yaratdi. Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka oid «Majolis un-nafois», «Mezonul-avzon» va «Mufradot» («Risoi muammo») asarlarini yaratgan. «Majolisul-nafois»da 450 dan ortiq shoirning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Ko'plab ijodkorlar asarlarining yutuq va kamchiliklari haqidagi o'z qarashlarini bayon qilgan keyingi ikki asari adabiyot nazariyasiga oid bo'lib, «Mezonul-avzon»da aruz nazariyasi haqida bahs yuritgan. «Mufradot»da muammo janrining xususiyatlarini yoritgan.

Alisher Navoiy o'zining dilbar she'rlari bilan o'zbek she'riyatini yuksak cho'qqiga ko'tardi. Uning go'zal g'azallari, tuyuq va qit'alari, qasida va fardlari, muxammas va musaddaslari, tarjiband va soqiynomalari hozirga qadar g'oyaviy-badiiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Alisher Navoiy bevosita ruboiy janrida ko'plab asarlar ijod qilganligi bilan o'zbek adabiyoti tarixida alohida ajralib turadi.

Fors-tojik hamda o'zbek adabiyotida Navoiyga qadar ham ko'plab shoirlar ruboiyning go'zal va betakror namunalarini yaratganlar. Biroq ular yaratgan ruboiylarning aksariyati ishqiy, falsafiy mavzular doirasida qolib ketar edi.

Alisher Navoiy yozgan ruboiylar mavzularining rang-barangligi, mazmunining boy va chuqurligi bilan ushbu janr taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Navoiy ruboiylarida jamiyat hayotining muhim masalalari haqidagi falsafiy qarashlar etakchi o'rin egallaydi: shoirning ko'pgina ruboiylari uning hayotidagi ayrim muhim voqealar bilan uzviy bog'liq ekanligi sezilib turadi. Muhimi shundaki, Alisher Navoiy ruboiylarida ma'naviy-axloqiy masalalar o'ta hayotiy detallar asosida talqin qilingan. Masalan, «Zevar kishiga ne toju, ne afsar bil» deb boshlanuvchi asarida haqiqiy inson uchun toj ham, mansab ham, shohlar sallasiga qadab qo'yiladigan hukmdorlik jig'asi ham bezak bo'la olmaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Insonning go'zalligi uning ma'naviy olamida, ya'ni inson xulqida mujassamlangan odob va hayodadir:

Zevar kishiga ne toju ne afsar bil,
Ul zevar adab birla hayo darxar bil.

Shoir ruboiyning dastlabki ikki misrasida aytgan ana shu fikrni uchinchi va to'rtinchi misralarida kimki odobsiz bo'lsa, u baxtsiz bo'ladi, uning ishi yurishmaydi, chunki odob har bir inson uchun muhim bezakdir, deb hisoblaydi:

Har kimki adabsizdir, ishin abtar bil,
Alqissa eganlarga adab zevar bil.

Kishi yaxshi inson bo'lib etishishi uchun yaxshilar bilan suhbatdosh bo'lib, yaxshilarni qidiradigan, ularga ergashadigan bo'lishi lozim. Agar kishi yaxshilar bilan hamfikir, hamqadam bo'lmasa, unday odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Kishi shirinso'z, muloyim bo'lishi, atrofidagi kishilarni qo'pol, qattiq so'z bilan bezdirmasligi lozim. Mana shu hayotiy g'oya, falsafiy xulosa shoirning quyidagi ruboiysida o'zining teran badiiy talqinini topgan:

Xo'b el bilan suhbat tutubon xo'p o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ili matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il
Yumshoq de xadisingni-yu maxbub o'lg'il.

Xullas, Alisher Navoiy ruboiylari hayotiy kuzatishlarga boyligi, teran falsafiy xulosalarni sodda tilda, yuksak badiiy umumlashmalar orqali o'quvchi ongiga etkazishi bilan o'zbek ruboiynavisligini yuksak bosqichga ko'tardi.

Iymonu e'tiqodga ega bo'lish, shariat va tariqat yo'lida yurmoqlik insondan aql-zakovat, ma'rifat kuchini talab etadi. Kamolotga intilgan inson haqiqatlarni anglab boradi, olam sirlarini idrok etadi, ko'z o'ngida dunyo rang-baranglikdan ko'ra yakranglikka moyilday ko'rina boshlaydi.

Demak, hazrat Alisher Navoiy hayratlanib yaratgan timsol - komil inson ruhiyat manzaralari qizil, sariq, yashillikka chulg'angan orif inson kamolotining daraja-sifatlarini ifoda qiladi. Olamning kichik bo'lagini vujudida tutgan inson qalbi, tuyg'ularidan rang olgan jilvalar, rangin ohanglar ma'nosini badiiy yoritishga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Alisher Navoiy haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Shoir tarjimai holini qisqacha so'zlab bering.*
3. *Shoir bizga qanday asarlarni meros qoldirdi?*

Alisher Navoiy insonning go'zalligini nimalarda ko'radi?

MAVZU: ALISHER NAVOIY IJODI

REJA:

1. Buyuk mutafakkirning bolalik chog‘lari.
2. Shoirning siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi xizmatlari.
3. Navoiy lirikasi.
4. Navoiyning epik asarlarini yaratilishi va g‘oyaviyligi.
5. O‘zbek bolalar adabiyotida Navoiy asarlarining mohiyati.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: “Sharq”. 1998.
2. Xamidov X. O‘zbek adabiyoti.-T. 2004.
3. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. -T.: G ‘.G ‘. nom. Adabiyot va san'at nashr. 1983.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 2- jildlik. –T.: 1992.
5. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. -T.: “Kamalak “. 1991

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri XV asrda – temuriylar davrida yashab, ijod qilgan Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tavallid topdi. Uning asl ismi Nizomiddin Muhammad Fiyosiddin o‘g‘li bo‘lib, Alisher Navoiy uning taxallusidir. Alisher go‘dakligida temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. To‘rt yoshida uni o‘qishga berdilar. Ziyrak va qobiliyatli Alisher maktabdagi boshqa bolalardan ajralib turar va kattalarning diqqatini o‘ziga jalb qilar edi. Biroq Hirotidagi o‘qishi uzoqqa cho‘zilmadi. 1447 yilda Navoiylar oilasi Iroqqa ko‘chib, Taft shahrida yashay boshladi. Taftda mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy tirar edi. Yosh Alisher bu olimning suhbatida bo‘ldi. Ali Yazdiy yosh Alisherning aqli va farosatidan g‘oyat xursand bo‘ldi. 1452 yilda Alisherlar oilasi Hirotga qaytib keldi. Hirot hokimi Abulqosim Bobur Alisherning otasini Sabzavor shahriga hokim qilib yubordi. Navoiy Hirotida qolib, o‘qishini davom ettirdi. U adabiy asarlarni qunt bilan o‘qiy boshladi. U Sa’diyning (1184-1292) “Bo‘ston”

(1257), “Guliston” (1258) asarlarini, ayniqsa, Fariddin Attorning “Mantiqut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini qayta-qayta o‘qib, hatto to‘liq matnini yod olgan edi. Bu asar tasavuf tariqati g‘oyalarini ifodalovchi asar bo‘lib, yosh Alisher butun vujudi bilan asarni o‘qishga qiziqib ketdi. Natijada u kishilardan chetlashadigan, yolg‘izlikni yoqtiradigan bo‘lib qoldi. Alisherning bu holatidan tashvishga tushgan ota-onasi kitobni o‘qishni man qilishdi. Biroq “Mantiqut-tayr”ning ta’siri uzoq davom etmadi. Ota-ona Alisherning har tomonlama bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdilar. Alisher zamoninig mashhur muzikashunosi Xo‘ja Yusuf Burhondan muzika o‘rgana boshladi va tarix, adabiyot, husnixat hamda boshqa fanlar bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. Yosh Alisher ayniqsa adabiyotni sevdi. Oila muhiti ham unga ta’sir etdi. Alisherning Abusaid mirzo tomonidan qatl etilgan tog‘alari Mir Sayid (taxallusi Qobuliy) va Muhammad Ali (taxallusi G‘aribiy) ham qobiliyatli shoir bo‘lib, yosh Alisherga ko‘p she’rlarni yod oldirishar, shoir davrasida birga olib yurishar edi. Navoiy 10-12 yoshlaridayoq ,adiiy zavqi va didi, ilk she’rlari bilan ma’lum bo‘lib, katta san’atkorlar va olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgan edi.

Alisher

Navoiy

Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor berdi. Mir Alisher bolalarni ilmu-hunarni, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yulida sarf qilish zarurligini uqtirdi. Alisher Navoiy ilm- ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a surdi. U aql, ilm - insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish - o‘rganish kerak. “Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘in ani”, -degan shoirning o‘zi ham juda yoshligidan ta’lim oladi,o‘qishga beriladi. U yoshligidanoq ko‘p she’rlarni bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning “Mantiqut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini bolalik chog‘idayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat beradi. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qildi. Alisher Navoiy Astrabodda surgunda yurganida, podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabus kursatgani buning yaqol dalilidir. Navoiyning fikricha,

maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bjalarni bilimli qiladi. U o'zinig "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni mudarris "abjadxonalar"ga, hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi.

Mavzu: Gulxaniy va o'zbek bolalar adabiyoti. (2 soat)

Reja:

1. Gulxaniy hayoti va ijodi.
2. "Zarbulmasal" asarida muhim ijtimoiy masalalarni majoziy obrazlarda yoritilishi.
3. "Maymun bilan Najor", "Toshbaqa bilan Chayon", "Tuya bilan Bo'taloq" masallarida hayot haqiqatini ifodalanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulxaniy . Zarbulmasal. T 1974.
2. Buyuk siymolar , allomalar. T.1997.
3. O'z.M. 4 jild. T. 2002 . 395-bet.

Gulxaniy hayoti va ijodi. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida to'la ma'lumotga ega emasmiz. 18 asrning oxiri, 19 asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod etgan Gulxaniy nomi tazkira va tarixiy asarlarda zikr etilgan. Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuaro" asarida aytilishicha asli tog'li Qorategindan Qo'qonga kelib oila qurgan ekan. U taxminan 1770-80 yillar atrofida tug'ilgan. Og'ir iqtisodiy qiyinchiliklarda kun kechirgan. Ba'zi manbalar uning Namangon madrasalarining birida tahsil olganligidan darak beradi. Aytishlariga qaraganda Gulxaniy hammomda o't yoquvchi - gulohlik vazifasida ishlagan va shuning uchun Gulxaniy taxallusini tanlagan deb nisbat berishgan. Fazliy buni Gulxaniyning "otashfe'l"ligi va «devonafe'lligi»dan deb tushuntiradi. Shoir o'ziga taxallus tanlashda keyingi ma'noni nazarda tutgan bo'lishi ehtimolga yaqindir. Negaki, u ma'lum vaqt navkarlik ham qilgan, o'z shijoati, g'ayrati, paxlavonligi bilan ajralib turgan, urushlarda qatnashib jasorat ko'rsatib borgan, lekin uning xizmatlari xon tomonidan taqdirlanmagan. SHoirning hayoti muhtojlikda, bir burda nonga zor, sipohiylik qilib rohai ko'rmay, xasrat-nadomatda o'tadi. Bu fikrni shoirning "Ber" radifli she'ri xam tasdiqlaydi. Bunda shoir o'zining qashshoq turmushidan noliydi:

Hazratim ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga,
Kofir o'lg'ayman agar desamki, baxmon Ber menga.
Moshu bug'doyu guruch berkim, shular menga kerak,
Hech aytmasman aqiqu, la'lu marjon ber menga.

Vafoti noma'lum bo'lgan shoirni taxminan 1830-40 yillarda dunyodan o'tganligini taxmin qiladilar. Gulxaniy ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u ikki tilda qalam tebratgan. Fors – tojik tilidagi g'azallariga J u r ' a t taxallusini qo'llagan.

Gulxaniydan qolgan adabiy meros hajmi uncha katta emas, lekin unga shon-shuhrat keltirgan asari “Zarbulmasal”dir. Gulxaniy bu asarni Qo'qon xoni Amir Umarxon (1811) tavsiyasiga ko'ra yozadi.

“Zarbulmasal” (maqollar keltirib so'zlash, o'xshashi va timsolini keltirib gapirish) – majoziy mazmun beruvchi asar – masal bo'lib unda turmush voqealari turlicha toifadagi, turlicha fe'l-atvorli kishilarning munosabatlari qushlar misolida (Yapaloqqush bilan Boyo'g'li o'rtasidagi qudachilik mojarolarini bayon qilish orqali) hikoya qilinadi. Qushlar esa o'zaro zarbulmasal yo'li bilan so'zlashadilar, maqsadga erishish uchun xar xil maqol, matal, hikmat va chuqur mazmunli hikoyalarni keltiradilar.

“Zarbulmasal”da muhim ijtimoiy masalalarni majoziy obrazlarda yoritilishi. “Zarbulmasal” jiddiy ijtimoiy mazmunni majoz yo'li bilan badiiy ifodalovchi axloqiy-didaktik va tanqidiy-hajviy yo'nalishdagi asardir. Unda ijtimoiy hayot muammolari, jamiyati turli tabaqa-guruhlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar, insonlarning o'zaro muomalalari, urf-odatlar, xalq marosimlari haqida majoziy uslubda so'z boradi.

Gulxaniy ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalarning insonlar tabiati va amaliy faoliyatidagi olijanoblik va pastkashlik, adolat va zo'ravonlik, saxovat va xasislik, kamtarlik va manmanlik, qanoat va ochko'zlik, xushmuomalalik va qo'pollik, halimlik va dag'allik kabi fazilat va salbiy belgilarni badiiy mahorat bilan qushlar va hayvonlar tili va harakatlariga, intilish va qilmishlariga ko'chiradi va ular ishtirokidagi hayotiy lavhalarda o'z munosabatini bildiradi. Asar bilan tanishgan har bir o'quvchi gap qushlar va hayvonlar faoliyatlari va mojarolari haqida emas, balki kishilik jamiyatidagi turli tabaqa-guruhlar vakillari haqida borayotganini darhol anglab oladi. Asar ishtirokchilarining nutqlari xalq maqollari, matal, hikmat va qoliplangan birikma-iboralaridan keng foydalanish asosida qurilgan. Asar voqeasi qadimgi “Farg'ona iqlimida” joylashgan “eski bir shahristonda” yuz beradi. U yerda iste'qomat qilayotgan Yapaloqqush o'z o'g'li Kulangirsultonni uylantirish taraddudiga tushadi, shu manzilda yashayotgan Boyo'g'li va Boyqushlar qizi Kunushbonuga sovchi qilib Ko'rqushni yuboradi. Bahs va tortishuvlardan so'ng qiz tarafga beriladigan qalin miqdori ming chordevor deb belgilanadi, nikoh marosimlari o'tkaziladi. Voqealar davomida bo'lajak qudalar va ularning manfaatlarini ifodalovchi ishtirokchilarning tabiatlari, falsafasi, ichki dunyosi va intilishlari bosqichma-bosqich ochila boradi. Gulxaniy Boyo'g'li, Yapaloqqush va Kulangir sulton obrazlarida o'zlari koshonada yashab, vayronagarchilikning sababchisi va tarafdori bo'lgan, mol-mulk orttirishga intilgan ba'zi amaldorlarni tanqid qiladi.

“Zarbulmasal”da yetakchi mazmun bilan mantiqan uzviy bog'lanib ketgan o'ndan ortiq nasriy va nazmiy masal, qissa va hikoyatlar mavjud. Xususan “Maymun bilan Najjor”, “Toshbaqa bilan Chayon” kabi masallari yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan. “Maymun bilan Najjor” masalida hayotiy lavha orqali “bilmagan, o'rganmagan va aqling yetmaydigan ishga hovliqib urinma, avval hunarni yaxshilab egalla, shunda pand yemaysan” deb ugit berilsa, «Toshbaqa bilan Chayonda» hayotda do'st tanlashda nihoyatda ehtiyot bo'lishlikka, yomonga aslo

yaqinlashmaslikka da'vat etiladi. "Zarbulmasal"dagi bu kabi axloqiy-ta'limiy yo'nalishdagi masallardan farqli o'laroq «Tuya bilan Bo'taloq» masalida sof ijtimoiy mavzu badiiy intihosiga yetkazilgan. Unda erksiz Tuyaning och va suvsiz qolgan Bo'talog'ining yolvorib qilgan fig'onu nolasiga bergan g'amgin javobi aniq eshitaladi:

"Zarbulmasal" o'zbek badiiy nasrining eng yetuk namunalari qatorida faxrli o'rin olgan. Rang-barang tasviriy vositalardan, murakkab sajdadan keng foydalanib yozilgan bu asarning tili nihoyatda shirador, jozibali bo'lib, asarning chin ma'noda xalqchil ruh egallashida juda katta xizmat qilgan. "Maymun bilan Najjor", "Toshbaqa bilan Chayon", "Tuya bilan Bo'taloq" masallarida real hayot haqiqatini ifodalaydi.

Toshbaqa bilan Chayon (nasriy bayoni)

Bu masalda hikoya qilinishicha Iroqdan Hijozga kelayotgan Toshbaqa yo'lda Chayon bilan uchrashadi. Ular birga ketayotganlarida daryoga duch keladilar. Toshbaqa daryodan so'zib o'tib orqasiga qarasa, Chayon daryo qirg'ogida turibdi. Qaytib qirg'oqqa kelib, ustiga Chayonni mindirib yana qirg'oq tomon suzadi. Chayon esa Toshbaqaga nish urmoqchi bo'ladi. Buni sezgan va Chayonni avval ogohlantirgan Toshbaqa suvga shung'ib munofiq va xiyonatkor Chayonni suvga cho'ktirib yuboradi.

Masalda Toshbaqa aqlli, bardoshli, fahm-farosatli inson; sadoqatli do'st sifatida gavdalansa, Chayon yaxshilikni bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan, do'stiga ham xiyonat qiluvchi, fikri-zikri birovga yomonlik qilish bo'lgan kishilar sifatida tasvirlanadi.

Gulxaniy bu masal orqali Chayonga uxshagan yomonlar bilan do'st tutinma, undaylardan ehtiyot bo'l, chunki yomon xech qachon yomonligidan qolmaydi, degan muhim didaktik fikrni ilgari suradi.

Gulxaniy masalda yaxshi murodiga yetadi, yomon doim jazoga uchraydi, yaxshilik murod sari yetaklaydi, yomonlik halokatga duchor qiladi, degan didaktik xulosa chiqaradi.

Tuya bilan Bo'taloq

Kunlardan bir kuni sarbon tuyasiga yuk ortib yo'lga tushadi. Tuyaning orqasidan bolasi ham ergashadi. Ortilgan yuk og'ir, manzil uzoq, havo issiq, yo'l esa jazirama sahro edi. Ona ketidan ergashgan, yo'lda ochiqib, charchagan Bo'taloq bir oz to'xtashni onasidan zorlanib so'raydi. Ko'zlaridan yosh suvdek oqayotgan, to'xtashning ilojini topa olmagan ona: mening ixtiyorim sarbonning qo'lida. Menda agar zarra ixtiyor bo'lganda, og'ir yuk ostida qolmagan bo'lur erdim, deb javob beradi.

Gulxaniy bu masalda sarbon, Tuya va uning Bo'talog'i obrazlari orqali mehnat ahlining og'ir turmushini, erksizligini tasvirlaydi, inson haq-huquqi poymol qilinganligiga e'tiroz bildiradi. Mazlumlarning ohu faryodi, shikoyatini zo'r mahorat bilan ifodalaydi.

MAVZU: XX ASR BOLALAR ADABIYOTIGA MILLIY UYG'ONISH G'OYALARINING KIRIB KELISHI. HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODI.

REJA:

1. XX asr boshlari o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotida jadidchilik harakatining o'rni.
2. Bolalar adabiyotida ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy g'oyalarning kirib kelishi.
3. Hamzaning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati.
4. **Hamza darsliklarida axloqiy tarbiya mavzusi.**

Adabiyotlar:

1. **Karimov I. A. Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. // “Tafakkur”, 1998, 2-son.**
2. Aliev A. Istiqloq va adabiy meros – T.: Fan. 1997
3. Sharofiddinov O. Istiqloq fidoyilari. – T. 1993
4. Mamajonov S. Barhayot Hamza. – T.: Fan. 1991
5. Karimov N. Xamza Xakimzoda Niyoziy. (“O'zbek tili va adabiyoti”, jurnal) 1992 № 1.
6. Bolalar adabiyoti: yangilanish mashaqqatlari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002, 16 iyun

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati ortib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eska maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi tuzum o'rnatishga, oddiy xalq kishilariga, ularning bolalariga ma'rifat yog'dularinin sachratishga harakat qilgan kishilar esa jaded yoki jadidchilar deb ataldi. Jadidlar tarix maydoniga, avvalo, milliy mustaqillik uchun, mustamlakachilikka qarshi shior bilan chiqdilar. Shu bois, bu harakat, aholining ziyoli qismining e'tiborini tezda o'ziga jalb qildi. Ayniqsa, yosh ziyolilar-olimlar, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, huquqshunoslar, matbaachilar, ilg'or fikrli savdo-tijorat xodimlari jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo'ldilar. Ular hayotni, voqea-hodisalarni, milliy mustaqillik va qaramlikni idrok etib, xalqning, millatning istiqbolini to'g'ri tasavvur qildilar. Ular xalqning milliy qadriyatlarini, ilg'or urf-odatlarini, tarixini, madaniyati, insoniy huquqlarini tiklash uchun kurashib, katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish va rivojlanishida “Yosh buxoroliklar” katta faoliyat ko'rsatdilar. “Yosh buxoroliklar” keyinchalik, jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari, taraqqiyparvarlar deb ataldi. Abduvohid Burxonov, Usmo Xo'jayev, Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, S. Ayniy “Yosh buxoroliklar” ga yetakchilik qildilar. Jadidlar o'z orzu-istaklarini, faqat maktab,

maorif va ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, uni rivojlantirish bilangina amalga oshirish mumkin, deb bildilar. Ular targ'ib etgan g'oyalar hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jadidlar harakatining ma'naviy taraqqiyotimiz tarixidagi o'rni buyukdir.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Hamza ("Qiroat", "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi"), Avloniy ("birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Adibi avval"), S. Ayniy ("Bola tarbiyasi"), Behbudiy ("Bolalar uchun kitob") tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloq-odobi haqida materiallar beriladi. Ularning asarlarida yangi davr nafasi ufura boshladi. Ular bolalarni yaxshi o'qishga, ilm-fan nurlaridan bahramand bo'lishga, davrning haqiqiy o'g'il-qizlari bo'lib kamol topishga targ'ib etadilar. Shu bilan o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishlariga o'z hissalarini qo'shdilar.

Hamzaning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zbek madaniyatining eng yirik namoyadalaridan biri. U ma'rifatparvar shoir, o'qituvchi, jamoat arbobi, kompozitor, rejissyor, jurnalist sifatida ma'lumdir. O'zbek teatr san'atini rivojida muhim hissa qo'shgan buyuk dramaturg hamdir. Hamza 1989 yil 6 martda Qo'qon shahrida tabib oilasida dunyoga keladi. Hamza o'zining o'qishga bo'lgan zo'r ishtiyoqi tufayli 12 yoshidayoq to'la xat savodli bo'lib yetishadi. 1906 yilda madrasaga kirib o'qiy boshlaydi. Biroq madrasa ta'limi Hamzani qanoatlantirmaydi. Shunga ko'ra, u Lutfiy, Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat asarlarini mustaqil suratda mutoala qiladi, o'rganadi.

Hamza 1911 yili Qo'qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag'al bolalarni o'qitadi. Hamza yetim va kambag'al bolalar uchun «Doril yetim» ("Yetimlar maktabi")ni ochadi va o'qituvchilik qiladi. Hamza birinchi sinf o'quvchilari uchun «Yengil adabiyot», 2-sinf uchun "Axloq hikoyalari" o'qish kitoblarini tuzadi. 1919 yil boshlarida Hamza Qo'qondagi 1-boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o'zi o'qituvchilik qiladi. 1922-1924 yillarda shoir Qoraqalpog'istonning Xujayli tumanidagi 1-bolalar uyi mudiri va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1925 yilda esa u Farg'onaning Avval qishlog'ida o'qituvchi qilib tayinlanadi va g'oyat og'ir sharoitda ishlaydi. Shoir 1928-1929 yillarda Shohimardonga borib o'qituvchilik qiladi. 1-sinf o'quvchilar uchun "Yengil adabiyot", 1914 yilda 2-sinf uchun "Axloq hikoyalari" o'qish kitobi o'quv qo'llanmalarini yaratadi. O'qish kitobi Hamzaning ikkinchi darsligidir. Unda 9 ta dars bo'lib, ularning har biri axloqiy masalaga qaratilgan. Barcha hikoyalarining qahramoni o'zida ijobiy fazilatlarni mujassamlashtirgan maktab

o'quvchisidir. Hamzaning ijodi va o'qituvchilik faoliyati o'sha vaqtdagi hukumat amaldorlarini tashvishga soladi. Ular Hamza maktabini «Xavfli, bolalarni buzuvchi, din va ma'rifatdan ozdiruvchi maktab» deb qoralab yoptirib, o'zini ta'qib eta boshlaydilar.

Hamza 1913 yil fevralda chet elga ketib, Afg'oniston, Hindiston, Makka, Madina, Shom (Suriya), Bayrut, Istambul, Odessa shaharlarida bo'ladi va 1914 yil boshlarida Qo'qonga qaytadi. 1915 yilda Shohimardonda maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi, bu o'quv muassasasi chinakam xalq maktablarining dastlabki namunasi edi. Hamza bu maktabda yoshlarga dunyoviy fanlarni o'qitadi, aqliy, axloqiy tarbiyaga alohida ahamiyat beradi. Hamza Hakimzoda 1915-1916 yillarda yaratgan "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul" kabi ashulalar to'plamlarida, "Milliy roman yoxud yangi saodat" qissasi, "Zaharli hayot" kabi drama asarlarida mehnatkash xalqni o'qishga, ilm o'rganishga davat etadi:

Kim bilurdi odamu olam nadur, hayvon nechuk?

Bo'lmas erdi agar insonda bu asgor ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqqa kayfiyatini,

Lozim o'lg'ay topmoqqa avval o'qib axbor ilm.

Hamza "Sadoi Turkiston" gazetasida bosilgan bir she'rda "bir iloj qilib kambag'al bolalarni aqchasiz... tarbiya va o'quvga boshlarini band qilmoq..."choralarini izlaydi, she'r va maqollarida bolalarni o'qishga chaqiradi. Bu g'oyani Hamza «O'qi» she'rda bayon etadi:

Ko'zimizga ko'rinib turgan hamma asboblar

Hech biri bo'lmas edi, gar bo'lmasa, zinhor o'quv.

Yer yuzida ko'milib yotgan hama oltin, kumush

Yuzag'a chiqdi barii, bis anga axbor, o'quv...

Gar dilingda o'ylagan orzuga yetmoq istasang,

Qimmat umring qilmagil behudaga bekor, o'qi!

Qo'y o'yin, sayru tomoshani, g'animat yoshliging,

Shum fe'llardan o'zingni aylagil bezor, o'qi!

Ey o'g'il, dunyoda bo'lmoq istasang olijanob,

O'qig'il maktab borib, zinhor o'qi, ming bor o'qi!

Hamza darsliklarida axloqiy tarbiya mavzusi. Hamza xalqni o'qitish, savodxon qilish uchun tinimsiz intiladi va kurashadi. Maktablar uchun darslik vaqo'llanmalar yozishni o'ziga maqsad qilib lgan bolalarning chin do'sti Hamza bu yo'lda ancha ishlarni amalga oshiradi. Hamza yozgan darsliklar uning o'sha davrdagi dunyoqarashi, badiiy ijodi, bolalar adabiyotini tushunishi haqida ko'pgina ma'lumot beradi. Bu g'oya «Yengil adabiyot»da o'z aksini topgan.»To'g'ri so'zla" she'rida har qanday holatda ham to'g'ri so'z bo'l, deb o'z o'quvchisini, yosh kitobxonni to'g'ri so'z bo'lisha undaydi:

To'g'ri so'zla ey o'g'il,

Til bilmag'il yolg'onga hech.

Bir masal bor: tug'ri so'zlar

Boshini kechmas qilich

Hamzaning "Yengil adabiyot"ga kiritgan she'rlaridagi bosh qahramonlarning belgili xususiyatlaridan biri – to'g'ri so'zlik. Shoir bolalarni to'g'ri va rostgo'y bo'lishga, zararli va foydasiz ishlardan qochib ijobiy ishlar bilan shug'ullanishga, kishilarning yaxshi sifatlaridan ibrat olishga chaqiradi."To'g'ri so'z bola"da bu fikr yanada jonli chiqqanini ko'ramiz. Hamza bu she'rida barcha narsa pul va boylik bilan o'lchangan jamiyatda hamma narsadan ko'ra haqiqatni ustun qo'ygan ijobiy qahramon – bola obrazini yaratadi. Bir bola o'qishdan qaytayotganida ikki kishi uning oldini to'sib, biri dedi: «Tanga berurman senga, so'zla bir ozgina yolg'on manga". Shunda bola unga juda donolik bilan javob beradi :

So'zlang, aka, qomatingizga qarab,

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur.

Tangaga yolg'onni kim olgan erur.

Sizda ko'p erkan o'zi yolg'on aka,

Siz ani avval sotib aylang ado.

Qolsa kamib, yetmay agar sizdan,

O'rtog'ingizga kup erur bizdanam

Ofarin aytdilar uning so'ziga

Tangani xolis berubon o'ziga.

Hissa : kimki to'g'ri so'zni har qachon,
Teguzadur doimiy bo'yla hison.

Hamza bu she'rida bolalarni yoshligidanoq rostgo'ylik ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi, ularni yolg'onchilik va aldamchilikdan uzoqroq yurishga chaqiradi. Shu kitobda «Qimorning boshi» degan bir she'r bor. Bu asarda Hoshimjon degan bolaning ayanchli qismatidan to'g'ri xulosa chiqariga chaqiradi. Hoshimning «To'ptosh», «Juftmi-toq» degan o'yinlarni o'ynashdan asta-sekin qimor o'ynashga o'rganganini, bora-bora qimorga mukkasidan ketib, oxirida bor-yo'g'ini qimorga boy berganini, nihoyat uning go'lohlikka tushib, xorlikda o'lib ketganini ifo etadi.

U «Maktab» she'rida «O'qub ilmu adab bo'lg'ay garang xushyor maktabdin» deb «Insonni inson qatoriga qo'shish», insonni kamolotga yetkazish va uni olijanob, fazilatli kishi qilib yetishtirishda maktabning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Shoir maktab tarbiyasining ahamiyatini yuksak baholaydi, uni sirlarning xazinasini, odamni odam qiladigan joy deb ko'rsatadi.

«Ilm ista» she'rida yoshlarga murojaat qilib kishining ko'zlagan murod-maqсадlariga erishishida ilm olishning ahamiyati katta ekanligini aytadi, yoshlarni ilm olishga, dunyo sirlarini o'rganishga da'vat qiladi. U ilimli kishi bilan ilmsiz kishini bir-biriga solishtirib ilimli kishini porloq oftobga, ilmsiz kishini qorong'u kechaga uxshatadi:

...Har murodu maqsadingga yetmoq istarsan murod,
Ko'z ochib bedor bo'l: darkor ilm, darkor ilm!
Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istag'il zinhor ilm!

Hamza 1925 yilda «Ikkinchi sinf uchun qiroat kitobi» darsligini yozdi. Bu kitob g'oyaviy mavzui jihatidan A.Navoiyning «Hayratul-abror» asariga yaqin turadi. Kitob bolalar ruhiga mos qilib, nasriy yo'l bilan yozilgan. Undagi birinchi asar – «Ilm» da ma'rifatlilik, ilimli bo'lish shunday sharhlanadi: «Ey bolalar, xar bir inson bolasiga dunyoda eng avval zarur va lozim bo'lgan narsa olamda ilmlik o'lmoqdir. Ilmsiz kishini butun inson demak ayni xatdir...» Kitobdagi barcha darslar ana shunday tafsilot bilan boshlanadi, so'ng bir bayt she'r keltiriladi:

Ilmsiz har kishi uchsa havoga
Ko'ngil berma aningdek xudnamoga.

Shoir "Milliy ashulalar", "Oq gul", "Qizil gul", "Yashil gul" va boshqa to'plamlaridagi qo'shiqlari bilan xalq ommasini madaniyatli bo'lishga undaydi, zulmdan shikoyat qiladi, ijtimoiy faollikka chaqiradi.

Mashhur tarbiyachi, atoqli shoir, dramaturg va bastakor Hamza Hakimzoda Niyoziy mehnatkash xalqni, shuningdek, yosh avlodni o'qitish, ma'rifatli qilish, tarbiyalash ishiga o'zining butun iqtidorini, umrini bag'ishladi.

MAVZU: ABDULLA AVLONIY IJODI.

Reja :

1. Avloniy - ilm - ma'rifat targ'ibotchisi.
2. Avloniy – darsliklar muallifi.
3. Avloniy asarlarining badiiy qimmatini.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avloniy Abdulla .Tanlangan asarlar.2 jildlik,1- jild.SHe'rlar, ibratlar.T, 1997
2. Avloniy Abdulla.Guliston yoxud axloq.T.1967
3. Avloniy Abdulla. Toshkent tongi. T.1970.
4. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.\ Fan va turmush.1984 №11

**“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot,
yo najot, yo halokat,
yo saodat , yo falokat masalasidir.”**

A.Avloniy.

Avloniy - ilm – ma'rifat targ'ibotchisi. XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. O'z tarjimai holida yozishicha: “1885 yildan boshlang'ich maktabda o'qidim. O'qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890

yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o'qiy boshladim. Yoshim 13 ga yetgach, yo'qsillik menga ta'sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamg'a biroz yordamda bo'lib, qish kunlarida o'qir edim. So'ngra O'qchi mahallasidagi domlamizning kam havsalaligidan, o'quvda davomsizligidan O'qchi madrasasini tark etib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mulla Umar Oxundan dars o'qiy boshladim. Bu choo'larda qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur edim". Mustaqil mutoala bilan shug'ullandi. Arab, fors, rus tillarini mukammal o'rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va o'lkadagi ijtimoiy-madaniy harakchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab-o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davr jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirbodda, so'ngroq Degrizchilik mahallasida yangi usuldagi "Jadid maktab" ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. 1909 yilda badavlat do'stlarining ko'magida maktab marif ishlarida yordam beruvchi "Jamiyati xayriya" ochib, bolalarga kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam bepul berilishini ta'minladi. Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o'quvchilarning soni orta bordi. O'zi bolalarga jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, xandasa, hikmat (fizika) fanlaridan ma'lumotlar berib bordi.

Avloniy "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" deb nomlangan to'rt qismdan iborat bo'lgan darsligida yoshlarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi. Munavvarqori, Muhammadjon Poshshoxo'jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda "Nashriyot"(1914), "Maktab"(1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat"(1907), "Osiyo"(1908), "Turon"(1917) gazetalarini chiqardi va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi. Avloniy turli mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qildi. Qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi, bilim yurtida, oliy maktablarda o'qituvchilik qildi. U 1923-24 yillarda eski ahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlari mudiri, 1924-29 yillarda Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi, 1925-34 yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, O'rta Osiyo

Qishloq xo'jaligi maktabida, O'rta Osiyo Davlat universitetida (O'z MU) dars beradi, professor sifatida kafedrani boshqaradi. Avloniy 1927 yilda "Mehnat Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda unga "O'zbekiston xalq maorif zarbdori" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. Shoir 1934 yilda vafot etdi.

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Abdulla, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she'r, hikoyalar va maqolalar yozdi. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U adabiyotga g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkinlanmasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishni maslak etib qabul qildi. Shoir she'riyati bilan tanishar ekanmiz, qiziq bir holga duch kelamiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi.

Avloniy – darsliklar muallifi. Avloniy 1911 yilda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Birinchi muallim"- "Alifbo" darsligini yaratdi. Unda 32 harfni yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifada alifbo tartibida bergan. Shu sahifada Alifning so'zning boshida, o'rtasida va oxirida yozilishini ko'rsatgan, so'ng alifni barcha «bosh harflar»ga qo'shib bo'g'inlar hosil qilgan. "Ikkinchi muallim"da bolalarning axloq, odobiga doir halollik va poklikka oid turli she'rlar, hikoya masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik obrazlardan ustalik bilan foydalanilgan. Kitob "Maktab" she'ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabga borsa, o'qisa, savodxon bo'lsa, juda ko'p narsalarga erishishi chiroyli ta'riflanadi:

Maktab duru gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon !
Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon !...

Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo'llagan. Milliy kuylarga moslab she'rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u mardikorlik she'riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan biri bo'ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "Afsus" kabi she'rlar yozdi. Ona yurtidan uzoq shimolning qirli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritadi. Bu she'rlarning ohang va uslubi xalq qo'shiqlariga g'oyat yaqin bo'lib, ular xalqimizning milliy uyg'onishida muhim o'rin tutadi.

Axloqiy didaktik mavzudagi "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazardan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an'anaviy ikkiga - yaxshi va yomonga ajratadi. "Yaxshi xulqlar" deb nolangan birinchi qismida u 31 fazilat, "yomon xulqlar" deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta'rif beriladi. Mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristtel, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. U yaxshi xulqlarga fatonat, nazofat, shijoat, intizom, vijdon, Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng insoniy xulqlardan hisoblaydi. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok va yashartmoq kerak. "Tog'laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar... Havosi o'ta yoqimlik, Cho'llari bor toshlik, qumlik, Toshkand emas, toshqand erur, Keksalari gulqand erur", deya bolalarga ona diyorga katta mehr uyg'otishga erishadi. "Yomon xulqlar"ga esa g'azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqlarning belgilari deb biladi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidir: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Darslikdagi har bir bo'lim ta'lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag'ishlangan bo'lib, ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, takmillashtiradi. Har bir bo'limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar keltiriladi, she'riy parchalarda yoki hikmatli so'zlarda «qissadan hissa» chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan. Avloniyning "Bahor keldi", "Bulbul", "Bola ila gul", "Yolg'onchi

chupon”, “Tulki ila qarg’a” kabi juda ko’p she’rlari kichik maktab yoshidagi bolalarga bag’ishlangan.”Maktab bolasi” she’ri boshlang’ich sinf o’quvchilari hayotidan olib yozilgan. Asarda ishyoqmas, dangasa bolaning qalbida o’qishga muhabbat uyg’otishi umumiy yo’sinda bayon qilingan:

Yo’lga soldi til ila yo’ldoshin,
Maktabga moyil ayladi boshin.
Soldi o’rtog’ining so’zina quloq,
Bosdi ul ham o’quv yo’lina oyog’.
Ikkisi birga bo’ldilar mullo,
Chiqdi xatu savod ham imlo.

Shu tariqa shoir qissadan hissa chiqarar ekan “Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga” g’osini ilgari suradi. Avloniy o’zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda «Turkiston» teatr gruppasini tuzdi. “Turkiston” o’zining qat’iy nizomini ham e’lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g’oyaviy –badiiy rahbari ham Avloniy edi. Teatrda “Zaharli hayot”(Hamza), “Baxtsiz kuyov”(A.Qodiriy) kabi o’zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirdi va o’zi rol ijro etdi. Avloniy «Advokatlik osonmi?”(1914), “Pinak”(1915) komediyalari, 1914-17 yillarda yozgan “Biz va Siz”, “Portugaliya inqilobi”, “Ikki sevgi” kabi fojeyaviy asarlari bilan o’zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va teatrchilikning xalq orasiga tomir otishiga muhim hissa qo’shdi. Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o’zbek tiliga ugirdi, jumladan, I.A.Krilovning 21 ta masali, “Maymun ila ko’zoynak”, “G’ayri jinsiy ittifoq”, “It ila yo’lovchi”, “Qarg’a ila Zag’izg’on”, “Tulki ila Qarg’a” kabi asarlari o’zbek tiliga tarjima qilinib, “Maktab gulistoni” kitobida bosilib chiqdi.

G'AFUR G'ULOM VA O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI

REJA

1. G'afur G'ulom ijodida bolalar folklori.
2. Shoir asarlarida tarbiya va axloq masalasi
3. G'afur G'ulomning bolalar nasriga qo'shgan hissasi.
4. G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati.

Adabiyotlar:

1. Jumaboev M. O'zbek bolalar adabiyoti. T. «O'zbekiston» 2002.
2. Yoqubov H. G'afur G'ulom. T.,1959.
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. 11 tom.T.1959 .
4. G'afur G'ulom. MAT, o'n ikki tomlik.T.1986.
5. G'afur G'ulom va davrimiz.Shoir tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan anjuman. Qarshi "Nasaf" 2003.

G'afur G'ulom ijodida bolalar folklori. G'afur G'ulom bolalar adabiyotining ravnaqiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan. O'zining mehnat faoliyatini pedagoglikdan boshlagan shoir umrining oxirigacha qalban eng jonkuyar pedagoglardan biri bo'lib qoldi. U yosh avlodni, kelajak farzandlarini juda sevardi va bu sevgisini bolalar haqida yozilgan asarlarida yuksak muhabbat va cheksiz mahorat bilan ifodaladi. G'.G'ulom bolalar adabiyotiga 1923 yilda **"Felix bolalari"** she'ri bilan kirib keldi. Uning «Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi», «Avval o'qi», «Bari seniki», «Oltin medal» kabi she'rlari yoshlar va o'spirinlarga mos kelsa, «Ahmad yomon bola emasku, ammo...», «Ikki yoshlik», «O'rdak va Turg'un» «Charog'larim, qarog'larim», «Nortojining kurak tishi», «Yasha deyman o'g'lim», «Buni toping, qizlarim», «Chitti gul», «Siz mening yoshligimsiz» kabi she'rlari kichik maktab yoshidagi va bog'cha yoshidagi bolalarga bag'ishlangan bo'lib, bolalar she'riyatining yuksak namunalari hisoblanadi. Shuningdek, «Shum bola» (1934), «Tirilgan murda»(1934), «Yodgor»(1935) kabi qissalari bilan ham bolalar adabiyoti nasrini boyitdi. Xususan, 4-sinf «O'qish kitobi» darsligida berilgan she'rlari , topishmoqlari o'quvchilar qalbidan o'z o'rnini topgan. Shoirning «Oq terakmi, ko'k terak» she'ri mudom boshlang'ich sinf o'quvchilariga zo'r quvonch ulashib kelmoqda.

Sheʼrning mazmuni oʻquvchilarning yoshiga, qiziqishiga mos. SHoir soʻzlarni mahorat bilan qoʻllagan, xatto bolalarga qoʻyilgan boʻtaloq, qizaloq, toychoq, qoʻzichoq kabi laqablar jonli tilga yaqin boʻlgani uchun hech kimni ranjitmaydi, aksincha, sheʼrning xalqchilligini taʼminlagan. Sodda va ravon misralar bola ongiga oson oʻrnashib qoladi, qalbni shoʻx oʻyinlarga, goʻzal tuygʻularga toʻldiradi. Sheʼr satrlari bolalikning shoʻx va begʻubor olamiga hamohang jaranglaydi:

Keling qoʻshiq aytamiz
Qoʻshilishib hammamiz.
Oq terakmi, koʻk terak,
Bizdan sizga Kim kerak? Hey!
Akbar boʻtaloq, kerak. Hey!

Oʻquvchilarda dunyoqarash, mustaqil ijodiy fikrlashni takomillashtirish davr talabi boʻlib turgan bir paytda shoirning “Buni toping, qizlarim ”topishmoq sheʼri oʻquvchilarni ziyrak, topqir va zukko boʻlishga undaydi:

Toʻni silliq, tuki yoʻq
Hammasi toʻq, puchi yoʻq
Ichi qizil, koʻki yoʻq,
Uni choʻqolmas chumchuq,
Bu nima qizim Qunduz?
Bumi dadajon....(tarvuz)

Topishmoq sheʼr shu tarzda davom etadi. Har bir topishmoq oʻquvchini teran fikrlashga, oʻylashga, mulohazaga chorlaydi. Bu esa albatta, bolaning dunyoqarashini, mustaqil ijodiy fikrlashini oʻstiradi. Shoir umrining oxirigacha ham bolalar uchun yozishni eng faxrli ishlardan biri deb bildi, matbuot sohalarda uning bolalarga atalgan asarlari muntazam bosilib turdi.

Shoir asarlarida tarbiya va axloq masalasi. Gʻafur Gʻulomning pedagogik qarashlari bugun milliy pedagogikamiz merosimiz tarkibiy qismiga aylandi. Unda bolalar xulqidagi zararli odatlarni bartaraf etishga oid fikrlar haqida oʻtgan asrning 20 – yillaridayoq bong urilgan edi. Adib ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u oʻz davrida bolalar orasida zararli odatlarning kuchayib

borayotganligidan aziyat chekadi. U zararli odatlarning kelib chiqish sabablarini bolalar yashayotgan muhitning o'zidan izlaydi. Uning fikricha, "maorif tizimi pillapoyalarida o'tirgan mansabdorlarning aybi bilan minglab bolalar umumta'limga jalb etilmay qolmoqda".

... Maorifning vakillari

Qalandarday tentirab,

Eshiklarni qoqadi –

Rasmiyat

Faqat,...

... Minglab-minglab Ahmadjon

Rasmiyatdan ishga o'tish

Muddatiga boqadi...

Ma'lumki, o'tgan asrning 20-30 yillarida milliy nizolar, urush, qurg'oqchilik tufayli sobiq shurolar davlatida yuz minglab bolalar boqimsiz qolgan edi. Natijada mamlakatda bolalar qarovsizligi avjiga chiqdi. Maktab, oila nazoratidan chetda qolgan minglab bolalar zararli odatlarni "ko'cha maktabi"dan o'rganib oldilar. Bolalar qonunbuzarligining g'oyat kuchayishi davlat va keng jamoatchilikni tashvishga soldi. Shuning uchun shoir bunday boqimsiz bolalar taqdiridan tashvilanib, "Taklif qilaman" she'rida shunday degan edi:

Shu yoshgina o'spiringa qarangiz:

"Yosh boshidan kashanda

Qanday orsiz, sharmanda,

Bobosiday ko'ksovlanar,

Ko'p esiz!" –deyarsiz

...Haligacha

Maktab, o'qish unga yot...

Shoir o'z asarlarida zararli odatlar inson tanasi uchun hech bir zarurat emasligini ta'kidlaydi. Jumladan, spirtli ichimliklar, ko'knor, tamaki, nos, nasha, qora dori iste'mol qilish g'oyat zararli ekanligidan yoshlarni ogoh etadi. Bunday zaruratsiz narsalarni iste'mol qilish, ularga organizmni o'rgatish oxir-oqibatda inson sog'lig'ini izdan chiqarishini ta'kidlaydi. Surunkali zararli odatlarni o'ziga

hamroh etgan kishi kelajakda bunday odatlardan qutilish imkonini topolmay qolishidan ogoh etadi. Shoir e'tirof etadiki, alkogol qonga so'rilar ekan, u oilani, milliy urf-odatlarni buzadi. Inson uning quliga aylangach, u o'z hukmini o'tkaza boshlaydi: kishini or-nomusdan ajratadi, ishida baraka bo'lmaydi:

Alkogol	Alkogol-
Bizning qonlarga	Bizlar qul,
Va ro'zg'orlarga	Ruhan tushkun
...urf-odatlarga	Uzvan tutqun,
uylanib,	Rizqimiz jigarxun
ichkuyov,	
ya'ni yov	
bo'lib	
kirmishdir.	

Shoir "Nortojining kurak tishi" she'ri bolalar hayoti va tarbiyasiga juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalaga bag'ishlanadi. "...chollar kabi kemshik", "...oldingi kurak tishida bir hafta burungi ovqat qoldig'i" sasib qulansa hid tarqatib yurgan, og'zi va tishlarini chayish o'rniga «ko'cha-kuylarda chang tuproq kechib» yuruvchi "lunjlari olmaday shishgan" olti yoshli Nortojining kulgili obrazini yaratadi:

Oldingi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q – hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular-misli tikan.
Nortoji o'zi sho'x, erinchoq bola-
Yuzini haftada arang yuvadi.
Ko'cha ham kuylarda chang tuproq kechib,
"Olapar", "To'rtko'z"ni doim quvadi.

Nortoji obrazini yaratishda yumordan juda samarali foydalanadi. Favqulotda bolalarning diqqatini jalb etish, ularda yengil kulgi qo'zg'atish uchun bolalarning tabiatiga mos badiiy usulni o'ylab topadi. Nortoji tabiatidagi ba'zi qusurlarni tanqid qilish uchun shoir uning og'ziga o'rtoqlarini "ekskurtsiya" qildiradi:

Bolalar birma-bir tekshiradilar:

-Voybayov...bunisin qarang, o'rtoqlar!

Tishlarda istagan narsa topilar:

Jiydami,o'rikmi,pista po'choqlar,

Natijada Nortoji tish og'rig'iga muftalo bo'ladi. Shoir poetik va didaktik xulosa chiqarishda esa bolalar adabiyoti uchun eng muhim bo'lgan pedagogik talabga amal qiladi, ya'ni Nortoji o'quvchi ko'z o'ngida tuzalgan holda ko'rsatadi.Xuddi ana shu yerda ozodalik, gigiena qoidalariga rioya qilishning muhim ahamiyatini bolalarga singdiradi.

Endi Nortojining tishlari durday;

Og'riqni,sasishni bilmaydi, toza,

Har kimki, tishini tozalab tursa,

Joni orom olur, o'zi pokiza.

SHoir she'ning ta'sir kuchini oshirish uchun, chiroyli uxshatishlarni, qochiriq va mubolag'alarni, ta'sirchan obrazlarni topib ishlatadi. Nortoji obrazi tabiiy, beg'ubor, bolalar qalbiga to'g'ri yetib boradigan darajada hayotiy chiqqan.

G'afur G'ulomning bolalar nasriga qo'shgan hissasi. Uning nasrdagi mahorati "Tirilgan murda" (1934), "Shum bola", "Yodgor" (1936) qissalarida ochiq ko'rinadi. Adibning "Shum bola" qissasida o'zbek xalqining o'tmishdagi og'ir hayoti, xususan, o'smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari achinarli nasvirlansa, ba'zi obrazlarning harakatlari kulgi ostiga olinadi. Qissa dastlab 1936 yilda "Shum bolaning sarguzashti" nomi bilan "Mushtum" jurnalida chop etildi. Keyin "Dobdirash" deb o'zgartirdi. Har ikkala bo'lim yaxlit ko'rinishda 1938 yili "Shum bola" nomi bilan kitob holida bosilib chiqdi. Yozuvchi asarning boshidan oxirigacha latifalardan, xalq ertaklari va hikoyalaridan, askiyalarida unumli foydalandi. Shum bola dovyurak va chaqqon, u mehnatkash xalq vakili sifatida gavdalanadi. Sariboy, Azimxo'ja, Bo'riboyvachcha, Qoraxo'ja kabi salbiy obrazlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu qissaning tarbiyaviy-estetik ahamiyati katta.

"Tirilgan murda" asarida mehnatning tarbiyaviy ahamiyati. G'afur G'ulomning "Tirilgan murda" asarida jamiyatga dog' bo'lib tushadigan dangasalik

bilan mehnat o'rtasidagi kurash asosida mehnatning tarbiyalovchi qudrati tasvir etiladi. Muallif ijodiy maqsadini Mamajonning boshidan kechirganlari va uning o'z tomonidan yozilgan kundalik sahifalari vositasida, kulgili tarzda hikoya qiladi. Asar prolog va epilogdan tashqari, olti fasldan iborat bo'lib, ularda mulla Mamajonning 1925 yildan to 1933 yilgacha o'tgan davrda boshidan kechirganlari yozilgan. Asarda G'. G'ulom o'z qahramoniga "so'z" berib, uning o'ziga xos xarakterini yaratadi.

Ishyoqmaslik va yalqovlikda afsonaviy dangasalarni ham "bir cho'qishda qochiradigan" mulla Mamajonning bugungi kunda mehnatkashlarning ijobiy ta'sirida asta-sekin yalqovlikni tashlab, ilg'or mehnatkashga aylanganligini hayotiy, tipik sharoitda, hajviy va kulgili ifodalarga boy lavhalarda ko'rsatiladi. Mamajon timsoli asta-sekin o'sib, izchil xarakter darajasiga ko'tariladi.

Adibning "Tirilgan murda" asari ikki qismdan iborat. Ikkinchi qismda uning jamoa xo'jaligiga kirishi va qayta tarbiyalanishi, farovon hayotga erishishi tasvirlanadi.

Yozuvchi Mamajonning yalqovligi va erinchoqligini chuqurroq ochish uchun, avval uni "Ming bir kecha" ertaklaridagi Abutanbalning yalqovligi bilan taqqoslaydi: "Xo'sh desangiz, Bag'dod degan shaharda Abutanbal degan bir yalqov yigit o'z onasi qoshida yashar ekan. Abutanbal hech qanday ish qilmas ekan. Onasi topib kelgan ovqatni chaynab og'ziga solsa ham yutgani erinar ekan. Doimo yonboshlab yotar ekan-u, o'rnidan turishga hafsalasi kelmas ekan. Mabodo qo'ltig'idan ko'tarib, tika turg'izib qo'ysangiz, qadam qo'yishga botinolmas, zo'rlab qadam qo'ydirgan chog'ingizda ham, oyoqlari bir-biroviga chalishib yiqilar ekan..." Mamajon sarguzashtlarining uning o'z tilidan so'zlatilishi bolalarga asar g'oyaviy mazmunini yaxshi tushunishga va ularning qiziquvchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Mamajon shu qadar yalqovki, u otasi ekib ketgan yarim tanobcha yerdagi jo'xorini qayirib olishga va buni pishirib tiriklik o'tkazishga ham erinadi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: "Qaddimni ko'tarishdan ko'ra chollarning koyishlarini eshitish osonroq ko'rinar edi". Xatto, yurishga ham hafsalasi kelmagan yalqov Mamajon birdaniga ilg'or mehnatkash bo'lib qolmaydi. Davr

voqeligi, mehnatning shon-sharaf va qahramonlik ishiga aylanib, yalqovlikning tag-tomiri bilan yemirib tashlanishi Mamajon ongida illatlarni yo'qotib, uning o'zgarib borishida haqqoniy, aniq va hayotbaxsh kuch rolini o'taydi. Mamajonni mehnatga jalb qilishda yaxshi odamlarning ko'rsatgan ijobiy namunalari Sattorqul obrazida mujassamlashtiriladi.

“Sattorqul akam qo'yarda-qo'ymay shudgorga olib chiqdi. –Bas endi, yotaverma. Sal mehnatga ham qayish. Ranging joyiga kelib qolibdi. To'lishibsan. Yur men bilan, - dedi. Erinib uning ketidan keta boshladim. U qo'sh haydadi. Men otboshi yetakladim. Shudgor odamlar bilan to'la edi: birisi haydayotir, birisi mola bsayotir, boshqalari ketmon chopayotir .” Bunday jo'shqin hayot, daladagi qaynoq mehnat sururi Mamajonda asta-sekin mehnatga havas tuyg'usini uyg'ota boshlaydi.

Mamajon yalqovlikdan, qoloqlikdan qutilib, ilg'or ongli mehnatkashga aylanadi. Uning qayta tarbiyalanishida jamoa va erkin mehnat katta rol o'ynaganligi haqqoniy ravishda tasvirlab berilgan. Yozuvchi bu obraz orqali mehnatsevarlik g'oyalarini ilgari suradi. Asarning tuzilishi o'ziga xos, qiziqarli, tili ravon va soddadir. Mamajon tushida ko'rgan ayol: “G'unchaday tugilib kelgan qip-qizil lab, havoda uchib yurgan qaldirg'ochning muttasil qanotiday payvasta qora qosh, sochlarining uchi qung'iroq boylanganday jingalak, yuzlari atirgulga o'xshagan tiniq pushti rang ” tarzida chizilgan.

“Mening o'g'rigina bolam” hikoyasining yaratilish tarixi. Yozuvchi asarlarini yaratishda turli tasviriy vositalar, o'xshatilar, so'z o'yinlari va iboralardan foydalanadi. “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasi yuqoridagi ta'riflarga mos keladi. Hikoyada yozuvchi yosh o'spirin bola tilidan gapiradi, hikoyaning qahramoni ham shu o'spirin bola. Voqea bir kichik oilada , bir kechada bo'lib o'tadi.

Kuz oqshomlarining birida hamma tinch uyquda edi. Shu payt ularnikiga o'g'ri keldi. U tomdan yurib kelayotgan vaqtda aksa urib yubordi. O'y va xayol og'ushida bedor yotgan kampir o'g'rini sezib qoladi. Ular keyin uzoq vaqt urush haqida hayot haqida suhbatlashib o'tirishadi. Tong yorishay deb qolganda o'g'ri hech kim uni tanib qolishini istamay, hech narsa ham olmay jo'nab qoladi.

“Buni qarang-a, bizning uyimizga o’g’ri kepti. Bizni ham odam deb yo’qlaydigan ham bor ekanda dunyoda? Ertaga o’rtoqlarimga toza maqtanadigan bo’ldim-da: ”Bizning uyga o’g’ri keldi”. G’urur bilan aytilsa bo’ladi. Lekin ishonisharmikan? ”

Bunday fikrlash ham bolalarga xos bo’lgan odat, chunki uyga o’g’ri kirsam hech kim xursand bo’lmaydi. Bu bechora bola esa shu voqeani do’stlariga aytgisi, bu bilan u o’zlarining unchalik darajada qashshoq emasligini, uylarida nimadir borligini aytib maqtangisi kelar edi.

Ana turkiy tilning jilvalari, ana o’zbek atlasidek kamalak bo’yoqlar, ana milliy ohanglar, ana ruhiy evrilishlar, ana oddiy xalq qalbining manzaralari. Adib qalamining mo’jizasi shu qadar sehgarki, bizning bolalik ruhimizga, qonimizga, suyak-suyagimizga singib ketgan.

Yomonlik, qabihlik ma’nosini anglatuvchi “o’g’ri” so’zi buyuk shoirning mahorati bilan “o’g’rigina” bo’lib, mehrga yo’g’rilib, vaqtincha o’zining asl ma’nosini ham unutib, bedor yotgan kampirga qo’shilib, tom bo’g’otida turgan o’g’riga rahmimiz kelib: chin yurakdan shu qozonginani olib ket, quruq ketma!” deb yalina boshlaymiz. “O’g’rigina bola”dan nafratlanish o’rniga, unga mehrimiz tovlanadi. “O’g’rigina”ga rahmimiz kelib, quruq qaytarmaslik uchun berib yuborishga ro’zg’ordan arzigulik biror buyum qidiramiz.

Bir soatda aytib turib yozdirilgan, tahrir etilmagan, sayqal ko’rmagan bu asar, agar dunyo hikoyalarining eng nufuzli antologiyasi tuzilsa, o’sha majmuaning gultoji bo’lishiga, shubha yo’q edi.

G’.G’ulom buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspirning “Otello”, “Qirol Lir” tragediyasini, Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Gorkiy, Mirzo Tursunzoda kabi ijodkorlarning asarlarini o’zbek tiliga tarjima qildi.

MAVZU: Oybek va o'zbek bolalar adabiyoti

Reja:

- 1.Oybek va bolalar adabiyoti.
- 2."Qonli barmoqlar" hikoyasida bolalar haq-huquqlarini poymol etilishi.
- 3."Alisherning yoshligi" asarida ajdodlarga hurmat tuyg'usining ifodalanishi.
4. Oybek qissalaridagi o'ziga xos badiiy tasvir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek ijodining ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati. Qarshi – 2005.
2. Jumaboev M. O'zbek bolalar adabiyoti.T.2002. 94 – 104 – betlar.
3. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 19 jildlik. T.: Fan, 1975-1982.

Oybek va bolalar adabiyoti Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yangi o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'ziga xos ijod yo'li uslub maktabiga ega bo'lgan ijodkor hisoblanadi. Oybek 1905 yil 10 yanvarda Toshkentda hunarmand-bo'zchi oilasida tug'ildi. U adabiyot maydoniga 20-yillarning boshlarida lirik shoir sifatida kirib keldi. Uning birinchi she'ri "Cholg'u tovushi" deb ataladi. (1922 yilda "Armug'on" jurnalida chop etgan. Keyinchalik shoirning "Tuyg'ular" (1926), "Ko'ngil naylari" (1929), "Mash'ala" (1929) kabi to'plamlari, "Dilbar-davr qizi", "O'ch" kabi dostonlari birin-ketin yuzaga kela boshladi. Oybek yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga ta'sir etib, ularni tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda. "Shaharcha bolalari", "Yosh yo'lchi" (1925), "Gunafsha" (1926), "Shoirning bolaligi"(1937), "Odobli Tursun", "Ahmadjon bog'bon"(1971), "Ko'chadan ketarkan", "Bolalikni eslab" kabi she'riy kitoblari, "Zafar va Zahro"(1953), "Bobom"(1957) dostonlari, "Alisherning yoshligi"(1975), "Bolalik" qissalari o'zbek bolalar adabiyotining oltin gultoji hisoblanadi. 1981 yilda adibning "Globus" nomli to'plami bosilib chiqdi. To'plamda adibning shu vaqtgacha e'lon qilinmagan "Gulnor opa"(1930), "Fanorchi ota"(1930), "Singan umid"(1930), "Tilla topar"(1930) hikoyalari chop etilgan.

Shoir "Vatanni sev" she'rida Ona-Vatan obrazini butun salobati bilan chizib beradi.

Vatanni sev, tuprog'ini o'p.	Vatan-bizning ko'zimiz nuri,
Har qarichi muqaddas bizga.	Baxtimiz shu, quvonchimiz shu
Cho'lidagi hatto quruq cho'p	Sevgi, mehnat dilimiz duri,

Jondan aziz yuragimizga

Qimmatlarning qimmatidir u.

Oybek kichik maktab yoshidagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan “Qonli barmoqlar”(1962) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko’chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to’qqiz yoshli Alining sarguzashtlari orqali tasvirlaydi.

Qonli barmoqlar”hikoyasida bolalar haq-huquqlarini poymol etilishi

Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha ta’riflaydi: “Gorishov Loxurning bag’ridagi bir daha. Loxur-qo’shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba- vayronalar ichida yuguradi. Ko’cha, yo’lka deydigan narsa yo’q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarning birisidan Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so’ng haydalib, ko’chaga tashlangan edi.”Pokiston shaharlarining ko’cha-kuylarida to’da-to’da tilanchi bolalar yurar edi. Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganda gulobchi do’kondor uni chaqirib «jahl aralash dedi,-mana bu yashiklarni bo’shat!” va buning evaziga haq to’lashga va’da qiladi. Ali “Rostdanmi?”-deb so’radi va do’kondorning “ha”degan tovushini eshitgach, bola uzun xursindi, jilmaydi. Kir, kalta ko’ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi”. Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi : “Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig’i uni xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan , qo’llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush” edi. ”Isqirt, juldur, cho’pday oriq bolalar bolaning qonagan qo’llariga tikildilar”. Bolalar Aliga ko’mak bermoqchi bo’lganlarida u “raxmat” deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga , bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay do’kondor gulobchining og’ir ishini bajaradi. Do’kondor “bir qutini ochib, yupqa “chapati”-nonni uloqtiradi. Ali ilib oldi, quvonib dedi :”

-Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

-Aya, men keldim, non topib keldim.Turing non yeng, non...

Kampir onaning yuzini ochdi:

-O'tdi olamdan! Dard bilan, yo'qchilik bilan, ochlik bilan, g'am bilan hamisha kurashgan bu g'arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so'nggi nafasida o'lim bilan kurash dahshati ko'rinar edi”.

Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Alining hayoti uchun xos hodisa bo'libgina qolmay, balki kambag'al mehnatkash bolalarning hayoti uchun ham tipik hol edi.

Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ulari shakllanadi. Muhimi shundaki, hayotda doimo yovuzlik bilan ezgulik orasida tinimsiz kurash borishini, bu kurash insonlarni ulug' ishlarga otlantirishi mumkinligini his qiladilar.

“Alisherning yoshligi” asarida ajdodlarga hurmat tuyg'usining ifodalanishi
Oybek buyuk o'zbek shoiri A.Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi **“Alisherning yoshligi”** qissasini (1967) yozdi. Ulug' A.Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi : “Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha bir kuchli quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo'r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, adabiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi... U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari hamisha xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini xis etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim...”

Oybek 1928 yildan boshlab Navoiy ijodini o'rganishga kirishadi. Dastlab, Navoiy ijodiga doir ko'pgina ilmiy maqolalarni o'qib o'rganadi. Keyinroq “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan “Navoiy ” romanida mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi. Navoiyning bolaligi haqidagi qissaning yozilish tarixini adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova shunday izohlaydi : “Alisherning yoshligini qalamga olish niyati adib qalbida qirquinchi yillarning boshlarida tug'ilgan bo'lib, “Navoiy” romanini yozish davrida bu ishtiyoqi yanada kuchaygan edi. Tili, uslubi jihatdan mazkur romanga yaqin bu qissa 1967 yilda tugallangan bo'lsa-da, o'ziga nisbatan g'oyatda talabchan

adib, uni qaytadan ishlash maqsadi bo'lgani uchun e'lon qilishga oshiqmadi". "Alisherning yoshligi" qissasida Hirotidagi 1447-1452 yillar tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o'zaro taxt uchun kurashlari va shu davrda o'tgan Alisherning bolalik (Alisherning to'rt yoshdan) yillari haqida hikoya qilinadi. Qissada Alisher obrazining takomili o'sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Xukmron doira orasida mavqei ancha baland bo'lgan G'iyosiddin va Gulbegim bekaning oiladagi samimiyligi, o'zlarini sipo va oqilona tutishlari, farzandi Alisherning ham jismoniy ham aqliy tomondan kamolotida muxim rol o'ynaganligi haqqoniy tasvirlanadi. Qissa G'iyosiddin Kichkina uyidagi mehmondorchilik yaqin do'stlarning samimiy suhbatlari lavhasi bilan boshlanadi. G'iyosiddin Kichkina kamtar, jussasi kichik hammaning hurmatini o'ziga tortar edi. Shuning uchun do'stlari ba'zan Kichkina bahodir ham der edilar. Malika Gavharshodbegim saroyiga kelgan mehmonlar orasida Alisherning onasi Gulbegim beka ham bor edi deb uni shunday tasvirlaydi: "Hushbichim, kelishgan qomatli, yuzlari oppoq Gulbegimning ingichka qoshlari va jilvali mehr chaqnagan qora ko'zlari go'zallikning eng zo'r omili edi. Katta zavq va did bilan kiyingan, yigirma besh yoshlardagi bu juvon yig'inlarda ko'zga darrov talanar, chehrasi issiq, yoqimli ayol edi". Alisher o'zi yashagan davrning ziddiyatlarini u qadar anglab yetmaydi. Shuning uchun Shohruhning Abdulatif bilan, Abdulatifning Xonzodabegim va Gavharshodbegim bilan Ulug'bek to'g'risidagi munozaralari mag'zini chaqa olmaydi. Abdulatifning o'z otasiga qarshi gaplaridan dastlab hayron qoladi va ikkilanadi.

Alisherga xos fazilatlardan yana biri kattalarning fikr-mulohazalarini sinchikovlik bilan tinglash, kim haq, kim nohaqligini bilishga intiladi. Shunday qilib yosh Alisher xarakteri shakllana boradi. Chorsu maydonida dorga osilayotgan kishilarning holiga ko'p qatori Alisher ham achinib ko'z yosh to'kadi. Alisher dor, darra kabi jazo turlarini faqat eshitgan. Bu voqeani o'z ko'zlari bilan ko'rgandan keyin shafqatsizlik va zulmkorlik tushunchasi kengaya boradi. Asarda qiz va yigit muhabbatining poymol etilishi, ularning erk va sevgi uchun kurashi xalq qo'zg'oloniga sababchi bo'ladi. Shohruh vafotidan keyin shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash avj olib ketdi. G'iyosiddin Kichkina yaqin qarindoshlari bilan Iroqqa yo'l oladi. Shahzodalar

urtasidagi janglarni yo'lda bir chol tilidan hikoya qiladi. Cholning gapi shahzodalarga bergan bahosi Alisher qalbini larzaga soladi.

Asarda Alisherning san'atga bo'lgan munosabati ham aks etgan. Naychi chol obrazini olaylik. U bechora faqirlar tabaqasidan, hunari nay yasash va chalish, hayotini naysiz tasavvur etmaydi. Yosh kitobxon cholning so'zlaridan uning hunari naychilik ekanligini bilib oladi. "... – Nay o'zimizning qadimdan qolgan cholg'u, mungli, ma'yus qalblarning firoqi, alamlarini kuylaydur, to'y-bazmlarda uning go'zal sadosi ko'ngillarga zavq to'ldiradur, ajoyib sehrkor cholg'udir nay. Alisherbekning ishqi tushubdimi – o'rgaturmiz. O'g'lonim xohlasa balki mashhur musiqa ahlidan bo'lur... Dildagi ohang nafas ila nayga o'tur... Barmoqlar kuyni pardalarga solib turadur ". Oybek kekxa nuroniy naychi chol obrazi vositasida insonparvarlik, ezgulik, odamiylik, saxiylik, yoshlarga muhabbat kabi g'oyalarni targ'ib etadi.

Oybek qissalaridagi o'ziga xos badiiy tasvir Oybekning "Bolalik" qissasi avtobiografik xarakterdagi asar bo'lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashlari yotadi. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo'lgan shuxliklari, tinib – tinchimasligi, o'yinqaroqligi, ochiq ko'ngil va o'tkir zehqlik bola bo'lganligi tasvirlanadi. Musaning xarakteri oila, hayotda ko'rganlari va kishilar suhbatida shakllanadi. Keksalarning xonlar, beklar, boylar haqidagi xotiralari, eshitgan ertaklari Musavoyda adolatsizlikka va nohaqlikka nafrat uyg'otsa, mehnatkash halqqa muhabbat ruhida qarashga o'rgatadi.

"Bolalik" qissasida Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari obrazlari ham berilgan. Ular har biri o'z shaxsiy qiyofasiga ega. Masalan: Qodir mo'min-qobilga o'xshab ko'rinsada, jahldor. Ahmad oshiqboz, tentakroq, Sobir kichkina bo'lsada, pishiqqina va xokoza. Oybek o'sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Oybek ijodida "Zafar va Zahro" dostoni yetakchi o'rinda turadi. Bu doston Pokistondagi dehqon va ishchi oilalari, ular bolalarining azob-uqubatlarga to'la hayoti tasvirlangan. Doston qahramoni kata zamindorlarga qul bo'lishga majbur etilgan dehqon bolasi Zafar, onasi bilan ko'chaga uloqtirib tashlangan ishchi qizi

Zahrodin. Kitobxon dostonning boshidayoq Zafar musibati misolida pokistonlik bolalarning ayanchli hayoti bilan yaqindan tanishadi:

Zafar asta tentiraydi, yonsa-da kun,
Yoshi o'nda, jingalak soch, ko'zi tuyg'un.
Egnidadir parcha latta, kir va yamoq,
Tovonlarin tuyoqlagan qizg'in tuproq.
Oriq, kuchsiz qo'lda cho'loq supurgi bor,
Boshida go'ng savat, tentirar, bitgan mador.

Dostonda qashshoq dehqon oilasining fojiali hayoti, soliq to'plovchilarning qo'polligi va zolimligi, boyning rahmsizligi zafarlar oilasi misolida ko'satiladi. Yo'qchilik, nochorlik bois Zafar qishloq boyining quliga aylanadi. Zafar obrazi misolida zolim boylarga, zulmga qarshi nafratning tobora kuchayib borganligi ko'rsatiladi. Zafar qanchalik og'ir kunlarga qolmasin unda ozodlik, baxtiyor hayotga erishish hissi sira so'nmaydi. Zahroning otasi boyga qarshi dushman bo'lgani uchun qamalgan. Zahro esa ikki ukasi va onasi bilan yotoqdan quvilgan. Orzu-umid va bunga erishish uchun kurash- yaxshi narsa. Poemada Zahroning otasi kambag'al, ammo u ilg'or fikrli inson. Erk, ozodlik uchun intiluvchi va bu yo'lda qattiq kurash olib borishga ahd qilgan odam sifatida gavdalanadi.

Shoirning "Bobom" poemasi bolalar uchun katta sovg'a bo'ldi. 105 yoshli boboning o'tmishda kechirgan kunlari hamda bugungi hayot tasviri poemaga asos qilib olingan. Bobob bugungi O'zbekistonimizni samimiy sevadi, ardoqlaydi. U o'z nevara-chevaralariga nasihat qilib, ularni yaxshi o'qishga, ona yurtimizni astoydil sevishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, Oybek yuqoridagi kabi asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Mavzu: Hamid Olimjon va o'zbek bolalar adabiyoti

Reja

1. Hamid Olimjon bolalikning betakror kuychisi.
2. Hamid Olimjon va xalq og'zaki ijodi. ("Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg" dostonlari).
3. "Jangchi Tursun" balladasida vatanparvarlikni ulug'lanishi.
4. Hamid Olimjon ijodiy merosi.

Adabiyotlar:

1. Hamid Olimjon. Asarlar. T. 1989.
2. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T. 2000. 63-64-betlar.
3. Shermuxamedov S, Tursunov Sh, O'zbek bolalar adabiyoti. T. 1976.
4. Ahmadboyeva M, Ibrohimova S. O'zbek adabiyoti. T. 1978.

Shodlik yo'lga boshladi meni,
Baxtiyorlik bo'ldi odatim.
Shoir bo'lib shodlik va baxtni
Kuylamoqlik zo'r saodatim.

Hamid Olimjon bolalikning betakror kuychisi.

O'zbek adabiyotida shodlik va baxt kuychisi deb nom olgan buyuk iste'dod sohibi shoir va olim, dramaturg va jamoat arbobi Hamid Olimjon o'zbek bolalar adabiyotining rivojida ham barakali hissa qo'shdi. U 1909 yil 12 dekabrda Jizzax shahrida tavallud topdi. 4 yoshida otadan yetim qolgan Hamid bobosi Mulla Azim va onasi Komila aya qo'lida tarbiya ko'rdi. Jizzaxdagi Narimonov nomli maktabni tugatib, 1923-1926 yillar Samarqand pedagogika bilim yurtida, so'ng 1926-31 yillar Pedakademiya o'qidi.

1929 yil shoirning "Ko'klam" nomli ilk she'riy to'plami bosilib chiqdi. Shundan so'ng "Olov sochlar" (1931), "O'lim yovga" (1932) kabi she'riy to'plamlari ketma-ket nashr etildi. Shoir bolalar uchun ham bir talay asarlar yaratdi. "Oygul bilan Baxtiyor" (1937), "Semurg" (1939) ertak dostonlari, "Bolalik", "Samolyot", "Ona va o'g'il", "Jangchi Tursun" kabi asarlari bilan bolalar adabiyotida muhim hissa qo'shdi. 30-yillarning 2-yarmida H. Olimjon "Daryo kechasi", "Chirchiq bo'ylarida", "O'lka", "Baxt" singari to'plamlarini nashr ettirdi. Bu to'plamiga kirgan "O'rik gullaganda", "O'zbekiston", "Kuychining xayoli" she'rlarida ona diyorga muhabbat his tuyg'ulari yorqin ifodalangan.

Shoir bolalarga asarlarini manzur bo'lishi uchun original uslub izladi. O'sha davrdagi shablon uslubdan, ya'ni quruq didaktikadan voz kechib o'ziga xos uslub yaratdi. Asarlariga uzoq o'tmish haqidagi ertaklarga, goh o'zining yoshlik yillariga, goh real hayot faktlariga murojaat qilib ulardan mantiqiy xulosa chiqardi. 1928 yilda yozgan "Bolalik" she'rida jo'shqin yoshlikni, o'zining bolalik chog'larini xotirlaydi:

Bola edik, Tanlar – olov,
Qalb – qaynoq, Ko'zlar – o'tkir,
Dillar – sof, Erkin – erkin o'ynardik....

She'rning qudrati va katta muvoffaqiyati shundaki, shoirning yoshligi, uning ko'z oldida bolalikning umumlashgan tipik ifodasini topa olgan. She'r juda o'ynoqi, yosh kitobxonlar qalbini maftun etadi. Shu to'plamdan joy olgan "Lola" nomli she'ri

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. Bugungi kunda minglab Lolaga o'xshagan jajji qizaloqlarni Ona - Vatan quchog'ida o'nib o'sayotganliklarini Lola timsolida ifodalaydi:

Lola bog'chaga chiqib,
Kechga yaqin gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kunidan mo'l terdi.
Sochiga gul bog'ladi,
Chekkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko'mildi butkul.

Bolalarni gul – lolalarga o'xshatamiz. Ularga ehtiyotkorlik va mehribonlik bilan muomalada bo'lamiz. She'rni "Lola" deb nomlanishi bejiz emas. Bunda o'ziga xos ramziylik bor. Har bir bola o'ziga xos guldur. Shoir ifoda etayotgan ushbu g'oyani hayotiy epizod – lolaning gulzorda gul – lolalarga o'ralgani manzarasini chizadi.

Dunyoda Ona Vatandan aziz va muqaddasroq tuyg'uni o'zi yo'q. Vatanning kuch – qudratini madh etgan shoir shu aziz vatanning farzandi ekanligidan faxrlanadi:

Shodligim ko'kka sig'mas,
Bitmas baxtim bor manim,
Meni baxtiyor qilgan
Shu yengilmas vatanim.

Shoir har bir she'rda voqelikni aniq, sodda obrazlarda tasvirlaydi :

Osmonlarni to'ldirib
Samoliyot o'tib ketdi.
Uning kuchli ovozi
Olamni tutib ketdi.
Ey vatanim qurgan qush
To'xta meni olib ket.
Tuxta bir xat berayin,
Qanotingga solib ket.
Osmonlarda mening ham
Bitta lochin akam bor.
Xatimni ber o'qisin,
O'qisin takror – takror.

She'rni o'qigan bola ko'z oldida osmonni larzaga keltiragan samoliyotning aks sadosini his etadi. She'r bolalarbop, tez va osonlik bilan yod olinadi.

H.Olimjon bolalar uchun yozgan asarlarida tasviriy vositalar, o'xshatishlar, sifatlash va istioralarni mohirlik bilan qo'llaydiki, asar mukammal bo'lishi bilan bir qatorda yosh kitobxonni so'z boyligini, nutqini boyitadi. Ertaklar olamidan sehrlangan shoir buvisidan minnatdor ekanligini xotirlaydi :

Bolalik kunlarimda	Buvinimning har qissasi
Uyqusiz tunlarimda.	Har bir qilgan hissasi,
Ko'p ertak eshitgandim	Fikrimni tortar edi
So'ylab berardi buvim.	Havasim ortar edi.

Hamid Olimjon va xalq og'zaki ijodi. Xalq og'zaki ijodining go'zal namunasi bo'lgan "Malikai Husnobod" ertagi asosida "Oygul bilan Baxtiyor" dostonini yaratdi.

Doston orqali Vatanni sevish, uni qadrlash, uning kelajagi uchun kurashish lozimligi asardan bo'rtib ko'rinadi. Asarda shoir o'z maqsadini amalga oshirish uchun yaxshilik bilan yomonlikni, adolat bilan xudbinlikni qarama-qarshi qo'yadi. Xalq ertagidan farqli ravishda dostonda mehnatkashlarning ozodlik uchun qahramonlarcha olib borgan kurashlari o'z ifodasini topgan.

Asarda xalq kurashi va qo'zg'oloni Darxon va uning qizi Oygul boshchiligida namayon bo'ladi. Oygul faqat go'zalligi bilan emas, jasur, aqlli, xalqparvar ayol timsoli sifatida ham o'quvchida unga nisbatan chuqur muhabbat uyg'onadi. Oygul podsholarning mol-dunyosidan ozodlikni afzal ko'radi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida yengilmas, suvga chukmas, o'tda yonmas, o'q teshmas kabi iboralar ishlatiladi. Shoir bunday iboralarni Oygulni Jayxun baliq yutganda tirik qolish voqeasida qo'llaydi. Oygul jasorati va shijoati bilan xalq qahramoni To'marisni eslatadi. Shoir uning go'zal va yoqimli tasvirini mahorat bilan tasvirlaydi :

Oygul turishi bilan
Saroy charaqlab ketdi.
Hammayoq bo'lib ravshan
Uylar charaqlab ketdi
Oy deganda yuzi bor
Kun deganda ko'zi bor,
Go'zal, dono Oygulni
Bu barno bahor gulni
El sevar edi jondan.

Dostonda keksa Darxon obrazi jabr - zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib borgan isyonchilarning boshlig'idir. U zulmga va nohaq qon to'kilishiga qarshi kurashuvchi isyonkor. Isyonkorlik sabablari shunday tasvirlanadi :

Darxon so'z boshlab dedi:
"Men va qizimdan boshqa
O'lmagan qul qolmadi
Kirib shunchalik yoshga
Ko'rmovdim shuncha qonni
Shuncha zoru-fig'onni.

"Jangchi Tursun" balladasida vatanparvarlikni ulug'lanishi.

1942 yilda H.Olimjon "Jangchi Tursun" balladasini yaratdi. Vatanning har bir tuprog'i muqaddas. Uni asrash, himoya qilish, kerak bo'lsa fido qilish g'oyasi balladada o'z ifodasini topgan. Shoir balladani yozishdan bir oy oldin "Onaning nomusi" ocherkini yozib, harbiy xizmatdan qochgan Ortiqning onasi Iqlimaxonning "qochib tirik qolgandan o'lganing yaxshi " degan o'zbek ayolining vatanparvarligi hikoya qilingan edi. Bu voqea balladaning yaratilishi uchun turtki bo'ldi. "Jangchi Tursun" balladasi shoirning mahorat bilan yaratilgan asaridir.

Balladada lirik qahramon shoirning o'zi, hikoyachi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Tursun va Ona obrazi mavjud. Voqea front va mamlakat ichkarisida sodir bo'ladi. Tursun oddiy jangchi. Biroq u Vatan oldidagi burchini unutadi, o'z hayotini saqlab qolishga, qochishga harakat qiladi. Shu payt onasidan xat keladi. Shu xat bilan asarning tuguni tugiladi, ona o'g'liga murojaat qiladi :

Ona o'g'liga insoniylik burchini eslatadi, or-nomusli, Vatanni himoya qilishga da'vat etadi :

Xalqing uchun to'kkali
Yo'qmi bir qoshiq qoning?
Vatanning tuprog'idan
Shirin ekanmi joning?

Ona so'zlari jangchiga buyruqdek tuyuladi, qo'rquvni unutadi. Ona mardlik va vatanparvarlik timsolidir:

Hamid Olimjon ijodiy merosi. O'zbek xalq og'zaki ijodi durdonasi "Alpomish" dostonini birinchi marta 1938 yilda nashrga tayyorlagan. 1939 yildan 1944 yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida shoir "Muqanna" nomli she'riy dramasini yaratdi. Shuningdek, "Jangchi Tursun" balladasi bilan bir qatorda "Roksananing ko'z yoshlari" balladasi ham mash'um urush yillarini aks ettiradi. Iste'dodli shoir 1944 yil 3 iyulda avtomobil halokatiga uchrab vafot etdi. Xalq baxtini kuylagan shoir aytgan edi :

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'lida taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman.

Sakkizinchi mavzu

Bolalar she'riyatida tabiat va Ona Vatan tasviri.

Reja

O'zbek bolalar adabiyotining asoschilaridan biri, Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asarida "Vatanni sevmok " deb nomlangan fasl bor. Unda muallif jumladan, shunday deydi:

"Har bir kishining tug'ilib o'skon shahr va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilg'on, o'skon yerini jonidan ortuq suyar. Hatto bu vatan his tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat- rohat yashamas. Maishati talx bo'lib, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turur.

Biz – Turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini: eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: "Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", demishlar...

Hammaga ma'lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovlilarini sotib, hijrat qilg'on hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, ya'ni ularning tortib keturgon quvvat o'z vatanlarining , tuproqlarining mehru muhabbatidir..."

Vatan, Vatan deya jonim tanimdin o'lsa ravon,
Manga na g'am qolur, avlodima o'yu vatanim,

G'ubora do'nsa g'amim yo'q, vujudi zeri vahi,

Charoki, o'z vatanim xokidur go'ru kafanim.

Tug'ub o'son yerim ushbu vatan, vujudim xok
O'lursa, aslina roje' o'lurmi, man g'amnok?"

Darhaqiqat, Vatanni suyish har bir mavjudotning qonida bor. Vatan tuyg'usi inson tug'ilgan kundan boshlanadi. Kindik qoni to'kilgan tuproqning har bir zarrasi har bir inson uchun aziz, mo'tabar. Shuning uchun ham tug'ilib o'sgan yer Ona Vatan deyiladi.

O'zbek bolalar adabiyotida Vatan mavzusi, yuqorida qayd etilganidek, bolalar adabiyotimizning ilk qadamlaridan boshlanadi. Shoirларimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalarini doimo azazu mukarram Ona Vatan vasfiga bag'ishlaydilar, uning go'zalliklarini to'lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram. Ona qadar musaffodir. Vatanning noz-ne'matlari, boyliklari qanchalik qadrlı, bog'u bo'stonlari, gulzoru chamanzorlari qanchalik go'zal bo'lsa, tog'u toshlari, cho'lu biyobonlari ham shunchalik go'zal va qadrlıdır. Binobarin, vatanparvar shoir Vatanning qahraton qishidan ham, gullarga burkangan bahoridan ham, jazirama yozidan ham, to'kin – sochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi :

Eman bargi tovusning
Quyruq'iday serhasham,
Kiyik yurgan so'qmoqlar –
Qirda yo'l-yo'l beqasam.

Ayiq g'orga yo'l oldi,
Piymasini ivitgan.
Quyong po'stin tikibdi
O'ziga oq tivitdan.

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini,
Erinmasdan shamolning
Tarar paxmoq sochini.

Ona Vatan tabiatining oshuftasi Tursunboy Adashboevning "CHilla chiqib" sarlavhali ushbu she'rida Vatan qishining mukammal manzarasi chizilgan.

She'riyatning go'zalligi shundaki, shoir biz har kuni ko'rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabiat manzaralarini o'zgacha ko'z bilan ko'radi: biz uchun shunchaki daraxt bo'lib tuyiladigan eman bargining tovus dumiday go'zal, hashamdorligini kashf qiladi, kiyik yurgan so'qmoqlarning oppoq qorga burkanib yotgan qirlarda beqasamning yo'l-yo'l chiziqlariday tovlanishini idrok etadi; uning nazdida archa daraxtlari qulochini keng yoyib, bezitgan shamolning paxmoq sochlarini erinmasdan yashil taroqlari tarayotgan odamga aylanadi. Nazarimda, xuddi ana shu betakror, kutilmagan o'xshatishlar she'rga jon baxsh etadi, yosh kitobxon ko'z o'ngida Ona tabiatning jonli,

mukammal manzarasini yaratadi, tabiatning har bir sahifasi : jumladan, dov-daraxt uyquga cho'mgan, hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan, issiq uyda o'tirib o'qiyotgan kitobingdagi tasviriy oq etingni junjiktirib yuboradigan qahraton qish ham yosh kitobxon ko'z o'ngida o'zgacha qiyofada aks etadi, yashirin go'zalligini namoyon qiladi, G'afur G'ulom aytmoqchi : "Biz uchun qadrdon qish"ga aylanadi.

Tabiat va yil fasllari tasviriga bag'ishlangan she'rlar haqida gap ketar ekan, iste'dodli shoir Dilshod Rajab izlanishlari ham yosh kitobxon qalbiga o'ziga xos bir nur, shu'la olib kirishi bilan e'tiborga sazovordir. Yosh shoirning yil fasllari tasviriga bag'ishlangan she'rlaridagi o'ziga xos, ohorli tashbehlar kitobxon ko'z o'ngida Ona tabiat tarovatini o'zgacha ranglarda namoyon qiladi. Shu nuqtai nazardan uning "Qish lavhalari"dagi rangin chizgilar qish faslining turfa holatlarini yaratishi bilan xarakterlidir.

Ma'lumki, qish aslida zulmatning yorug'lik ustidan , sovuqning issiq ustidan vaqtincha g'alabasi ramzi. Shu bisdan ham qish manzaralari tasvirida ko'pincha mahzun ranglar. tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladi. Dilshod Rajabning quyidagi to'rtligida Ayni shunday holat tasviriga duch kelamiz :

Turar qator daraxtlar –
Holi nochor daraxtlar.
Boshga tushgan qor-g'amdan
Sochi oppoq oqargan.

To'rtlikda qishda ko'rki, tarovatidan judo bo'lib, nochor holatga tushib qolgan, boshiga tushgan g'am-alamlardan sochi oppoq oqargan daraxtlar tasviri beixtiyor sovuqdan dir-dir titrayotgan usti yupun kambag'alni ko'z oldingizga keltiradi. Biroq zulmat hukmronligi hech qachon mangu emas. U istasa-istamasa o'rnini yorug'likka bo'shatib beradi. Zero, tabiatning bu azaliy kurash qonuni aslida hayot boqiyli va taraqqiyot timsolidir. Navbatdagi to'rtlikda shoir anna u mangu qonuniyatni ulug'laydi :

Kechki osmon ohista
Qorni elay boshlaydi.
Tunning qaro sochiga
Oq oralay boshlaydi.

Ko'z o'ngingizda kechki musaffo qish osmoni elagidan kapalaklar yanglig' yerga qo'nayotgan qor zarralari , qaro tunni qaritib, sochlarini oqartirib, asta-sekin yorishib kelayotgan tong namoyon bo'lishi tabiiy."Qor" she'rda ayni shu mangu kurash va ezgulik g'alabasiga ishonch ramziy yo'sinda ishonarli tasvirlangan :

Qor bosmoqda atrofni-
Oqlar bosar guvillab.
Oqlar...hatto Oftobni
Ko'kda taslim qildilar.

Qahratonning qahridan
Qo'rqib qotgan yer-falak.
Qo'l ko'tarib asirday
Qilt etmay turar daraxt.

Faqat kurashar betin
Azamat sherbilaklar –
Kurash uchun yaralgan
Fidoysi... Qorkuraklar.

Ushbu she'r bir qarashda kinolarda ko'raverib, ko'zimiz qotib ketgan "oqlar" bilan "qizillar" o'rtasidagi mangu kurashning o'ziga xos bir tasviri va oxir-oqibat haqiqat tantanasi haqidagi asarlardan bittasidir. Ana shu an'anaviy mavzuda she'r bitgan shoir esa o'ziga xos, ohorli o'xshatishlari—

("Oqlar...hatto Oftobni Ko'kda taslim qildilar")

("Qahratonning qahridan Qo'rqib qotgan yer-falak")

("Qo'l ko'tarib asirday qilt etmay turar daraxt")

so'zlar va tovushlar takroridan paydo bo'lgan g'aroyib ohangdorligi bilan o'zgacha, jonli manzara yaratganki, bu tasvir yosh kitobxon ko'z o'ngida yalt etib namoyon bo'lishi shubhasiz.

"Qishki bog'" she'rida shoir daraxtlarni yanada o'zgacha tasvirlaydi, endi ularni o'rab olgan qor oq momiqqa, daraxtlarning o'zi esa shu yerda qishlab qolgan, bir oyog'ida jim qotib turgan bir to'p oq qushlarga o'xshatiladiki, bu g'aroyib o'xshatish bilan qishning sovuq manzarasiga kutilmagan bir iliqlik kiritiladi :

Sovuq yurar darg'azab,
Urar yupun yurganni.
Daraxtlar turar
Qorga –
Oq momiqqa burkanib.

Daraxtmas, bular go'yo
Shu yerda qolgan qishlab.
Bir oyoqda jim qotib
Turgan bir to'p oqqushlar.

Dilshod Rajab bu ko'hna olamga yosh kitobxonlarning ko'zi bilan boqadi, shu boisdan uning she'rlaridagi biz bilan siz – kattalar uchun kutilmagan tasvirlar yosh kitobxon uchun qadrdon, qiziqarli, uning xayolot olamiga hamohang, "Qishki safar" she'ri ham ana shunday bolalarcha munavvar taassurot mahsuli :

Mo'risidan dud chiqqan
Uylar misli poezdlar.
Yelayotir manzilga –

Shitob, bizning poezdlar.
Ular to'xtamas toki,
Sovuq qorlar ketguncha.
Toki so'nggi bekati –
Navbahorga yetkuncha.

Murisidan tutun chiqayotgan uylarni poezdlarga va o'zini shu poezd ichiga "Navbahor" degan ramziy bekatga tomon yelayotgan yo'lovchiga uxshatish aynan bola tasavvurining mahsuli ekanligi bilan ham tabiiy. Chunki so'nggi bekatga – "Navbahor"ga yetib borish bilan poezdlar to'xtaydi, mo'risidan tutun chiqmay qo'yadi. Binbarin, endi navbat fasllarning kelinchagi – bola baqra uyga sig'may varragini uchirib, qir – adirlardan bahor darakchisi – chuchmomayu lolaqizg'aldoqlarni terib, o'yin kulgidan bo'shamaydigan – navbahorga keladi. "Varraklar quvonchi" she'rida ana shu davomiylik qalamga olinadi :

O'tib ketdi badqovoq
Qishning achchiq ayozi.
Tabiat kiymoqda shod
Bayramona libosin.

Bahorda tabiatda bo'ladigan tabiiy o'zgarishlar – osmonlarda guldirak guldirab, chaqmoq chaqib, yomg'ir yog'ishi uning xursandchiligidan qah-qah otib kulishiga, kulgining zo'ridan ko'zidan yosh chiqib ketishiga o'xshatilsa : qishda zo'rg'a jildirab oqqan buloqlarning qaynab toshishi, soyu irmoqlarning o'zaniga sig'may, to'lib-toshishiga o'xshatiladi. Bu o'xshatishlar qanchalik tabiiy bo'lsa, shunchalik go'zalligi bilan yosh kitobxon qalbiga ham farah bag'ishlaydi, hatto varraklar ham o'z quvonchini ichiga sig'dirolmay, izhor qiladi :

... Bizning ham ko'ksimizga
Shamol tegadi endi.
Quvonchlardan boshimiz
Ko'kka yetadi endi.

Tursunboy Adashboev Ona Vatan tabiatining oshufta kuychisi sifatida o'z she'rlarida bu aziz vatan tabiatining rango-rang manzaralarini yaratar ekan, shu bilan bir qatorda ulkan ma'naviy ma'rifiy vazifani bajaradi. Zero, bolalar adabiyotimiz mustaqil O'zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga ham mas'uldir. Erta-indin ulg'ayib, jazirama issig'u qahraton qishni pisand qilmay , kechani –kecha , kunduzni kunduz demay, Vatan sarhadlariga posbonlik qiladigan bo'lg'usi vatanparvar askar yigitlar ham, Vatan tuprog'ini gullab - yashnagan bog'i bo'stonga aylantiruvchi fidokor dehqon ham, xullas, o'z halol mehnatini Ona-Vatan baxt saodatiga baxshida etadigan barcha kasb egalari bo'lmish insonlar T.Adashboyev singari ijodkorlar asarlarini o'qib, tom ma'nodagi vatanparvarlar bo'lib yetishadilar. Ona Vatan go'zalligini madh etuvchi xuddi ana shunday she'rlar yosh kitobxon qalbini go'zallikka oshno qiladi. Go'zallik to'yg'usi bilan to'liq qalblar esa vayron qiluvchi emas, balki

yaratuvchi bo'ladilar. T.Adashboyevning ijodi xususida so'z yuritar ekanmiz, ikkita muhim nuqtani borligini anglaymiz. Birinchisi, shoir she'rlari va dostonlari qat-qatiga singib ketgan fidoiyluk tuyg'usi bo'lsa, ikkinchisi, shoir tuyg'ularining samimiyligi. Darhaqiqat, T.Adashboyev asarlarining ayni shu jihatlari uning deyarli barcha she'ru dostonlariga ko'rk bag'ishlaydi. Binobarin, u bolalar adabiyoti Vatanning ertasini yaratuvchi avlodni tarbiyalab yetkazishga mas'ul ekanini bir daqiqa ham nazaridan qochirmaydi. Uning yuqorida tilga olingan tabiat manzaralari haqidagi she'rlari ham, hatto farzandlarimizning kundalik mehnat tashvishlariga me'yoridan ortiqroq jalb qilinayotganliklari haqidagi jonkuyarlik mahsuli bo'lmish she'rlarida ham ayni shu – fidoiyluk, vatanparvarlik his-tuyg'ulari barq urib turadi. Shu ma'noda ayniqsa, uning Vatanimiz tarixi va tarixiy joylariga bag'ishlangan she'rlari diqqatga sazavordir:

Chorak asr shahri O'shdaman,
Oqburadek oqar yil, oylar,
"Oq saroy"ni asray olmadik,
Qursak hamki ko'rkam uy-joylar,-

deydi shoir "O'sh" she'rida. O'shda yashab o'tgan, kindik qoni to'kilgan, poyqadami tekkan ulug' zotlarni, Ona yurtning tog'-toshlari-yu, tarixiy joylarini shoir bejiz tilga olmaydi. U

Do'stim, nahot Baroko'h tog'in
Taqdirimdan ayri ko'rgayman,
Buyuk Habib Abdulla haqqi,
Ruhan undan madad so'rayman,-

der ekan, bunda yosh avlodga xitob, ana shunday muborak joylarni ko'z qorachig'iday asrashga murojaat bor. Chunki 1917 yil oktyabridan keyingi yetmish yil ichida necha-necha "Oq saroy"larni eskilik qoldig'i sifatida yakson qilmadik, qarchadan-qancha masjidida madrasalarni omborga aylantirmadik, otabobolarimizning jahon tarixi, ilmi, san'ati, madaniyati va adabiyotiga qo'shgan hissalarini diniy qoldiq sifatida, ijtimoiy tengsizlik ramzi sifatida inkor qilmadik, o'zimizni o'zimiz savodsizga chiqarmadik, axir?! Xuddi shu ma'noda O'sh tog'ida, Baroko'hda tilsimga aylanib yotgan "Uch pahlavon", nortuyadek pishqirib oqayotgan, shaharga alla aytayotgan, o'zbeku qirg'iz uchun rizq manbai bo'lmish, kek-u adovat bilmas shifobaxsh "Oqbura to'lqinlari" ana shu muborak Ona tuproqning turfa nishonalari, shoir qalbidan yosh kitobxon yuragiga ko'chib o'rnashayotgan, bir umrga singib qoluvchi zarralardir. "Oq saroy" deganda ko'z oldimizga avvalo, ulug' shoir va tojdor bobokalonimiz Z.M.Bobur keladi. Bobur zolim podshoh va bosqinchi sifatida talqin qilingan 80 –yillar boshlarida shoir ulug' bobomizga ehtiromini shu birgina ishora orqali tasvirlar ekan, shuning bilan halqimiz tarixini o'zida aks ettirgan "Oq saroy"day obidalarining ba'zan qarovsizlikdan. ba'zan esa feodal o'tmish ramzi sifatida ataylab vayron qilib yuborilganini ehtiyotkorona qayd etish orqali zamonaga munosabatini ham bildiradi.

“O‘zimizning chumoli” she‘rida oromgohda dam olayotgan nevarasini ko‘rgani ona qishloq noz-ne‘matlaridan olib kelgan chol va Ushbu mevalar orasidan chiqib qolgan chumolini ko‘rib, xursandligi olamga sig‘mayotgan bolakay hayajonlari tasvirlanadi. Bir qarashda arzimagan bo‘lib tuyuladigan ushbu tasvirga shoir olam jahon mazmunni jo qila olgan. Zero, mevalarga ilashib kelgan “O‘zimizning chumoli”da yurt nafasi, tafti bor va ana shu taft bolakayning qalbini nurga to‘ldiradi. Shu ma‘noda ushbu she‘rning hatto sarlavhasi ham ma‘lum ijtimoiy mohiyat kasb etadi, yosh kitobxon qalbida Ona Vatanning har bir zarrasi, hatto arzimagan qumursqasi ham Vatanning ajralmas bir parchasi sifatida mustahkam o‘rin egallashiga zamin hozirlaydi.

Mavzu : Zafar Diyor va o‘zbek bolalar adabiyoti.

Reja

- 1.Zafar Diyorning hayoti va ijodiy faoliyati.
2. «Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa” dostonida davr muammosini ochib berilishi.
3. Zafar Diyorning o‘zbek bolalar dramaturgiyasiga qo‘shgan hissasi.

Adabiyotlar :

- 1.Zafar Diyor.Asarlar. Toshkent,1954
- 2.Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent , 2002

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotini Zafar Diyorsiz tasavvur qilish qiyin. Uning she‘r , qo‘shiq, doston, hikoya va pesalari yosh kitobxonga katta estetik zavq-shavq bag‘ishlab kelmoqda. Kata iste‘dod egasi Zafar Diyor 1912 yilda Namangan viloyatining hozirgi Chust tumani, Samsotqepa qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi.1916 yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga kuchib keladi. Zafarning otasi dalada, onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar.

1927 yilda Zafar to‘liqsiz o‘rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Tuxnikumda ko‘proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo‘lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she‘riy mashqlari bilim yurti devoriy ro‘znomasi sahifasida ko‘rina boshlaydi.

Yigirmanchi yillar oxiri va o‘ttizinchi yillar boshlarida uning yoshlar gazeta va jurnallarida ilk she‘rlari chop etila boshlandi. Zafar Diyorning birinchi she‘ri yosh shoirlarning “Qurilish kuylari” degan to‘plamida bosilib chiqdi. Ko‘p o‘tmay, uning birinchi she‘rlar to‘plami ham “Qo‘shiqlar” nomi bilan 1933 yilda nashr etildi.Yosh shoir 1933 yilda bilim yurtini muvoffaqiyatli bitirgach, o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi. Bu hol uning maktab va bolalar hayoti haqida yozadigan asarlarining hayotiy, puxta bo‘lishida ijobiy rol o‘ynaydi. Uning bunday ruhdagi she‘r, hikoya va ocherklari 1928 yildan boshlab matbuot sahifalarida tez-tez bosilib turdi.

1934 yilda Zaar Diyor Samarqanddan Toshkentga qaytadi va hozirgi “Tong yulduzi” gazetasiga adabiy xodim, keyinroq ro‘znomaning mas‘ul kotibi bo‘lib ishlaydi. Shu bilan birga u hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining til va adabiyot fakultetiga kirib, o‘qishni davom ettiradi. O‘zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi.Zafar Diyor kichkintoylar uchun she‘rlar yozar ekan, izlanish, o‘qish,o‘rganish zarurligini dildan his etadi. “Bolalar

uchun asar yozishni men o'zim uchun juda qiyin va mas'uliyatli vazifa deb bilaman . Bu mas'uliyatli vazifani uddasidan chiqish uchun tinmay ijodiy izlanishdaman”.

Zafar Diyor 1935 yilda dastlabki mashhur asarlaridan biri bo'lgan “Mashinist” dostonini yaratdi. Dostondagi Ashur obrazi baxtiyor yoshlarning fazilatlarini umumlashtirishga bag'ishlangan.

Maktabda o'qish Ashurni hunarli qilish bilan birga, uning ongi va tushunchasini ham o'stiradi.U Vatanga sadoqatli, har doim olg'a intiluvchi ilg'or yoshlardan biri bo'lib yetishadi.SHuning uchun doston qahramoni o'z umrini Vatan yo'liga tikishga tayyor turadi :

Sevinaman, hali yoshman, ko'p yashayman
Bu o'lkaning saodati – baxti uchun.
Yana o'qib, yana kulib ko'p yashayman
Shu ko'plarning biri bo'lib o'lkam uchun.
Ha! Mamlakat unday va'da bergay senga :
Butun umrim sening porloq hayotingga !

Asar yoshlarning ilm-fanga, kasb-hunarga, ona-Vatanga muhabbat, sadqat ruhi bilan sug'orilgan. Zafar Diyorning 30 yillar ijodi vatanparvarlik, va mehnatsevarlik tuyg'ularini aks ettiruvchi asarlarining ko'pligi bilan xarakterlidir. Bu xil asarlar yoshlar xarakterini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynab kelmoqda.

Shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munsabati mavzusidir. Shu jihatdan uning «Tantana» she'rlar to'plami (1938)dagi ko'plab she'rlari xarakterlidir. “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo'shiq”, “Kapalak” singari she'rlari ham shular jumlasiga kiradi.

Rang-barang gullarni, turli-tuman qushlarni sevgan shoir bolalar ruhiyatini chuqur tahlil etib, ularni ham ona tabiatni sevishga va parvarish qilishga ruhlantiradi, yoshlarni mehnatdan zavqlanishga o'rgatadi. Shoir bolalarda qushlarda muhabbat hissini uyg'ota oladigan quvnoq vazn, uynoqi misralar yaratadi. Shoir u maqsadda so'zlarning xilma-xil takroridan, misralarni esa Mayakovskiychasiga tizib, tasvirning ohangdorlik jarangini,kuchini yanada oshiradi :

Hoy qushlar,
qushlar,
qushlar,
Qanot qoqib kelinglar,
sa'va,
mayna,
bulbullar
Sizga termular ko'zlar...
 (“Qushlar haqida qo'shiq”)

Shoir bolalarning tabiat hodisalariga, hashorot-u jonivorlarga, ayniqsa,kapalakka qiziqishini, mehr-muhabbatini kichkintoylarga xos so'z va ohangda ifodalab, hayotga diqqat-e'tiborini oshiradi, kuchli zavq uyg'otadi, kapalak bazi orqali kitobxonda insoniy tuyg'ularni shakllantiriga harakat qiladi. Zafar Diyorning “Binafsha” she'rini yoddan bilmagan o'quvchi bo'lmasa kerak.SHe'r o'zining ravon o'qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi :
Binafshaxon,binafsha,

Kulishlaring chiroyli;

Bog'imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.

Shoirning "Mamlakat", "Kazbek", "Tilsiz o'rtoq", "Madridan kelgan mehmon" kabi she'r va dostonlari shoir ijodining har taraflama yuksalishidan dalolat beruvchi lirik-epik asarlardir.

Zafar Diyor bolalarning hatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, uning «Kel, uchaylik shimolga » she'ri g'oyat xarakterlidir. Bunda shoir «Quyosh tushmaydigan» qutbni borib ko'rishni orzu qilgan bolaning lirik obrazini gavdalandiradi. Yosh bolaning murg'ak xayoli shimoliy qutbni borib ko'rishni, undagi hodisalar bilan tanishishni xohlaydi. Shoir lirik qahramonning ulug' maqsadlarga erishish uchun Fan va texnika asoslarini amalda egallashi kerakligini chuqur anglaydi. Buni shoir modelcha yasash jarayonida kichik yoshdagi bolalarning ruhiyatiga mos, sodda holda tushuntiradi va ularda katta ishlarga-qahramonlikka havas uyg'otadi:

Yosh bo'lsam ham mayliga
Qanot bog'lab uchayin;
Muz sahrosi Qutbning
Sirin men ham ochayin.
Hoy, suyukli modelcham,
Tayyormisan safarga ?
Fikrim senda hamisha,
Kel, uchaylik Shimolga !

Shoir dovyurak uchuvchilarning tarixda birinchi bo'lib qutb yo'lini ochganligi bilan bolalarni tanishtirib, ularni chkalovlar kabi mard uchuvchi bo'lishga undaydi.

Zafar Diyor zamondolarimizning yangi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, mo'l-ko'l hosil olish va qishloqlarni obodonlashtirish ishida olib borilayotgan kurashlari «Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa» dostonida ochib berilgan. Dostonda sahro-cho'llardagi shamolning vahimasi va uning ayanchli tasvirini chizib, kitobxon diqqatini asarga jalb qiladi. Doston ertak shaklida, bolalarbop usulda yozilgan. SHoir sahrolarning «Qashqir kabi uvullovchi», "Boyqush kabi huvlovchi" dahshatli shamollari odam – tabiat dushmani ekanini obrazli misralarda yoritadi. Bundan keyin shoir hayotni go'zal, sahro-cho'llarni obod qilishda suvning qadrini juda yaxshi bilgan keng o'tloqni jonlantirib so'zlatadi va u yerlarda «gul hayot » qurish g'oyasini olg'a suradi. Yuksak tog' ham chorasizlikdan o'z dardini-suvni keng o'tloqqa eltib berolmasligini o'kinch va alam bilan so'zlaydi. SHoir endi bolalar fikrini boshqa narsaga-dunyoda ongga, qudratga ega bo'lgan inson va uning ta'rifiga buradi. Zafar Diyor insonning kuch-qudratini sodda, mazmunli, shirali, bolalar qalbiga tez yetadigan iboralarda ifodalaydi:

Bu mardlik va mahorat,
Bu kuch – quvvat , jasorat
Insonlarga yo'ldoshdir,
Ularga xos qo'ldoshdir.
Butun borliq-tabiat
(Bu so'zlarim haqiqat)

Bo'yso'najak insonga
Gul tutajak ul jonga.

Shoir insonning aql-zakovati, kuch-qudrati haqida fikrlar ekan mubolag'aga zo'r beradi, insonni hatto, tabiatni ham o'zga bo'ysundiruvchi kuch sifatida ta'rif etadi. Albatta, bu fikrlar turg'unlik davrining oqibatidir. Negaki «Sirdaryoning jilovlnishi» bugungi kunda xalqimizga qimmatga tushmoqda. Bir so'z bilan aytganda tabiat insonlarning boshboshdoqlik hatti harakatlari uchun shafqatsiz o'ch olmoqda. Bundan bu asar mutlaqo keraksiz yoki zararli asar ekan, degan xulosaga kelmaslik zarur. Asar kitobxonlarni mehnatsevarlikka, yaratuvchilikka, tabiat bilan inson munosabatida muhabbat tuyg'ulari bo'lishi lozimligiga undaydi. Bu fikrini ifoda etishda shoir yangi uchul – tog' va o'tloqlarni jonlantirishdan foydalanadi :

Hoy, mard o'rtoq, mard o'rtoq...
Qara qancha keng o'tloq
Suvsizlikdan dili dog',
Uning ohin o'chirib,
Chamanzorga aylantir,
Mangulikka shodlantir.

Dostonda shu tariqa xalqimizning azaliy orzusi – cho'l-biyobonlarni bog'rog'larga aylantirish orzusi o'zining badiiy ifodasini topgan.

Zafar Diyor bugungi o'zbek bolalar dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham barakali hissa qo'shdi. U bolalar hayoti haqida «Baxtli yoshlik», «Yosh vatanparvarlar», «Omonat», «Uch og'ayni» kabi qator dramalar yozdi.

O'zbek bolalar nasrini rivojlantirishga ham Zafar Diyor o'z hissasini qo'shgan yozuvchilardan. Uning «Jo'natish», «Cho'pon qizi», «Nojo'yaliklar» kabi hikoyalari shular jumlasidandir. O'zbek bolalar adabiyotini rivojlanishiga she'r va qo'shiq, doston va ertaklari bilan juda katta xissa qo'shgan Zafar Diyorning asarlarini bolalar xamon sevib o'qiydilar va yuksak qadrlaydilar.

Mavzu: S.Ayniy va I. Ibratning ijodiy faoliyati.

Reja:

- 1. I.Ibrat ma'rifatparvarlik qarashlari.**
- 2. I.Ibratning ijodiy faoliyati.**
- 3. S.Ayniyning hayoti va ijodiy faoliyati.**
- 4. S.Ayniyning ilm-fan sohasida tutgan o'rni.**

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat». 2008.
2. Karimov I. A. Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. // «Tafakkur», 1998, 2-son.
3. S.Ayniy. Asarlar. 8 jildlik. –T.: 1963.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Ishoqxon Ibratdir. U ma'rifatparvar shoir, tilshunos, tarixshunos, publitsist va ilg'or pedagogdir. Ibrat uning taxallusi. U 1862 yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja

Sunnatilloxo'ja o'g'li ancha bilimli,sohibkor bog'bonlardan edi. U adabiyotga, she'riyatga ixlos qo'yib, "Xodim" taxallusi bilan she'rlar bitgan kishi bo'lgan. Onasi Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lib, o'z uyida qishloq qizlarini o'qitar edi. U ham adabiyot ixlosmandi bo'lib, she'rlar yozib turgan. Ibrat 1886 yilda Qo'qon madrasasini tugatib, o'z qishlog'I To'raqurg'onga qaytrib keldi va o'z ijodini ilg'or o'qituvchi safatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshladi. O'sha yili o'z qishlog'ida maktab ochdi.

1887 yilda onasi Huribibi o'g'liga Makkaga olib borishni iltimos qiladi va ular yo'lga o'tlanadilar.Biroq onaizorga o'z vataniga qaytish nasib qilmaydi. U yo'lda qattiq shamollab, olti oydan so'ng vafot etadi va Jidda shahriga dafn etiladi. Ibrat shundan so'ng Sharq mamlakatlari bo'ylab, sayohatga chiqadi. Yevropaning Istambul, Sofiya, Afina, Rim shaharlarida bo'ladi. Afg'onistonning Qobul va Jidda shaharlarida ancha vaqt istiqomat qiladi. 1892-1896 yillarda Hindistonning Kalkutta va Bombayda yashaydi. Ibrat u yerlarda ko'p ishlatiladigan arbail lisonni, ya'ni to'rt tilni; arab, fors, hind-urdu, ingliz tillarni mukammal o'rganadi.U yerda o'zining "Lug'ati sitta-al-sina", "Jome'ul-xutut", "Tarixi Farg'ona" asarlari uchun boy material to'pladi. U 1896 yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ng Qashqarga o'tdi. Qashqar orqali o'z vatani Namanganga qaytdi.

1901 yilda 6 tildagi arab, fors, tirk, o'zbek va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta-al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini Toshkentda nashrdan chiqardi. Tilshunoslik fanining murakkab sohasida ancha mukammal "Jomeul-xutut" (Yozuvchilar majmuasi) nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarni 1912 yilda o'zining bosmaxonasi "Matbaai Ishoqiya"da nashr ettirdi. Uning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida namoyon bo'ldi. Ibrat o'zining "Tarizi madaniyat" asarida xabar berishicga, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy,lingvistik, pedagogic asarlar va 30 yillik poetik ijodining majmui bo'lmish "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini yaratdi.Uning "Tarixi Farg'ona", Tarixi madaniyat", "Mezonul zamon" asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Bu asarlarda o'zining pedagogic-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surgan. Bundan tashqari uning "Tarixi chofxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Turkiston ahliga xitob", "Gazeta xususida", "Tabrik Namangandin", "Qalam", "Muxammasi Ibrat" kabi she'rlari ham diqqatga sazovordir. Bu she'rlarida ilg'or fan texnika, madaniyatning kuychisi sifatida maydonga chiqib, mamlakatni, xalqni qoloqlikka yetaklovchi ammallarni fosh qiladi. U 1937 yilda 75 yoshida vafot etdi.

S.Ayniy ijodi. Ainiy 1878 yilda Buxoro viloyatining G'ijduvon nohiyasiga qarashli Sektare qishlog'ida, kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi. Ilk ma'lumotni eski maktabda va Buxoro madrasasida oldi.. S.Syniy dunyoqarashining shakllanishida Markaziy Osiyoda avj olgan milliy-ozodlik harakati katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda Ayniy mehnatkash xalqning og'ir ahvoliga bir saba-uning savodsiz va ma'rifatsiz ekanligi deb tushunardi. Shu bois, yangi usuldagi maktab ochishga kuch sarflaydi.Ayniy tojik tilida "Qir'onni to'g'ri o'qish haqida", "Diniy yo'l-yo'riqlar", "Yoshlar tarbiyasi", qizlar maktabi uchun "Qiz bola yoki Holidi" nomli o'qish kitobi darsliklarini yaratdi.

1917 yildan to'ntarishdan so'ng S.Ayniy xalq maorifi muammolari bilan jiddiy shug'ullanib, Samarqand shahrining Qushhovuz mahallasida bir sinfli maktab ochib, yosh svlodga ta'lim-tarbiya bera boshlaydi. Uning bu maktabi 8 –sinf hajmida bilim

berar edi. Ayniy o'zbek tili va adabiyoti, tojik tili va adabiyoti, muzika, tarix, mehnatdan dars bergan. S.Syniy O'rta Osiyo xalqlari tarixining bilimdoni sifatida "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", "Mang'it amirlarining tarixi" kabi tarixiy asarlar yozdi. Ayniy o'zbek va tojik asabiyotining mumtoz yozuvchilari ijodini o'rganish borasida katta ilmiy izlanishlar olib bordi. Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Sa'diy Sheroziy, Navoiy, Bedil, A.Donish singari allomalar haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan fan sohasiga katta ulush qo'shdi. Uning hayoti va ijodi, pedagogik faoliyati yosh avlod uchun namunadir. Undagi mehnatkashlik, irodalilik, ilmiy ma'rifatni e'zozlash va uni boyitishga intilish kabi olijanob xislatlar yosh avlod uchun ahamiyatlidir. U 1954 yilda vafot etadi.

MAVZU: Sulton Jo'raning ijodiy faoliyati.

REJA:

- 1. Sulton Jo'ra hayoti.**
- 2. Shoir lirikasining mavzu qamrovi.**
- 3. Shoirning pedagogik mavzudagi she'rlari.**
- 4. Ulug' Vatan urushi davridagi ijodi.**

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". 2008.
2. Karimov I. A. Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. // "Tafakkur", 1998, 2-son.
3. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002
4. O'zbek bolalar antologiyasi. -T.: Sharq., 2005.

O'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri, pedagog, jangchi-shoir Sulton Jo'ra 1910 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyati Shofirkon tumanining Qag'altom qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida dunyoga keladi. Yetti yoshidan ota-onadan yetim qolgan Sulton har kimning eshigida xizmat qildi. U dastlab boshlang'ich maktabda o'qib, so'ng 1924 yilda Buxoroga keldi va bu yerda erlar pedagogika bilim yurtida o'qib, uni 1930 yilda tugatdi. Sulton Jo'ra 1931-38 yillarda Buxoro rafagida, 1938-41 yillarda Andijondagi o'qituvchilar ilmgohi va pedagogika bilim yurtida til va adabiyotdan dars berdi.

Sulton Jo'raning dastlabki ijod namunalari 1933 yilda Buxoro yosh shoirlarining «She'rlar» to'plamida bosilib chiqadi. Uning 1939 yilda «Fidokor», 1941 yilda «Moskva» she'riy to'plami, 1942 yilda esa «Iroda» nomli pesasi nashr etildi. Sulton Jo'ra kattalar uchun jo'shqin lirik she'rlar, yirik dostonlar yaratish bilan birga, bolalarga atab ham ajoyib asarlar yozdi. Shoir bolalar uchun yozgan asarlarida baxtli bolalik, Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat, mehnat ahllariga e'tiqod tuyg'ularini ifodaladi. Ayni choqda, u yaxshi va a'lo baholarda o'qish uchun kurash, rostgo'y va intizomli bo'lish, madaniy va orasta kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta'lim-tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g'oyalar shoirning «Yozgi yomg'irdan so'ng»(1936), «Mamatning kechirmishi», «Ikki bahor», «Qish tuni» (1937), «Qizlar», «A'lo va Yaxshi»ning maqtovi», «Zangori gilam» (1939), «Lola», «Oy nechta?», «Tinish belgilarning majlisi», «Cho'ntak», «Tsirkda»(1940), «Qarzdor», «Qaldirg'och», «Yolg'onchi»,

«Dengiz tagida» (1941), «Sog'inib» 1942, «Sog'inchli salom», «Salom xat» (1943) kabi asarlarida o'z ifodasini topdi. U o'z asarlarida bolalar va maktab hayotini, ularning o'qishi, ko'cha va oilada o'zini tutishini haqqoniy aks ettirdi. «Havorang gilam» to'plamida 30-yillarda yozilgan 15 she'r, doston va ertak bosilgan. Ular mohiyat e'tibori bilan g'oyat rang-barangdir. To'plamda bolalarni Vatanimizning ajoyib manzaralari bilan tanishtirib, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini oshiruvchi, yosh avlodni kelajakka katta umid bilan qarash va ilm-fanga muhabbat uyg'otuvchi («Ota mehri», «Oy nechtp?»), tinchlik to'g'risida kuylovchi («Qaldirg'och»), tarixiy voqealar bilan bolalarni tanishtirishga bag'ishlangan «Lola», «Havorang» kabi asarlari bor.

Bolalar ilmiy-ommaviy mavzularda yozilgan san'at asarlarini ham sevib o'qiydilar. Shoir bu mavzuda ham ancha asarlar yaratdi. Bunday asarlarining sirasiga kiruvchi «Oy nechta?» she'rida kichkintoylarning orzu-umidlarini ifodalovchi xarakterli parcha ona va bolaning dialogi shaklida yozilgan.

Shoir «Mamatning kechirmishi» she'rida darsni o'zlashtirmaydigan bolalarning o'z kamchiliklarini asta-sekin tushunib yetgan va yalqovlikni yengishni Mamat timsolida yaratdi. She'rida Mamatning ichki –ruhiy kechinmalari, ish yoqmasligi, yalqovligi, darslarda qoloq bo'lib, nihoyat iztirob chekishi ishonarli tarzda aks ettirilgan. Shoir qoloqlik sabablarini birovdan emas, balki qahramonning o'zidan qidirtiradi va buni Mamatning o'zini gapirtirish orqali ochadi.

-To'g'ri, nasihatlar kor qilmadi, Xushyoqmaslik edi hamdamim. Attang, nega qittay or qilmadim, Gazetalarda chiqsa ham nomim? -

deb, har kuni eshitgan dakkilari unga juda ta'sir qiladi, darsdan qoloqligi tufayli ruhan zob chekib, qiynalib yurgan Mamat o'jarligi, o'zboshimchaligini tashlab, do'stlari yordamida oyoqqa turib, astoydil o'qishga ahd qiladi. Shoir she'rning nihoyasida qissadan hissa chiqarib, a'lo o'qish katta ahamiyatga ega ekanligini bolalar qulog'iga qo'yadi:

A'lo o'qish o'zi yuksak shuhrat,
Har shuhrating tillarda doston.

Shoir tabiat lavhalaridan, go'zal hayotiy tasvirlardan mohirona foydalangan holda qahramonning ichki holatini ochadi va ta'sirchanlikka erishadi. Aniq holatdagi tasvir ham g'oyaviy maqsadga xizmat qiladi. Chunki, kitob o'qimay, tayyorlanmay, tavakkal qilib imtihonga kirib sharmanda bo'lgan Mamat tasviri bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Shoir bu she'rida do'stlari oldida izza bo'lgan Mamatning yalqovlikni tashlab, a'lo o'qishga mahkam bel bog'lagan bolaning ijobiy o'zgarishi namunasida o'z kuchiga ishonish, nuqsonlarga tanqidiy qaray bilish g'oyat katta kuch degan ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik o'gitni ilgari suradi.

S.Jo'ra bolalar va maktab hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yozdi. Shoirning bu she'rlari uni ham shoir, ham pedagog sifatida tanitdi. Ta'lim-tarbiya sohasida yozma nutq san'atini egallash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ba'zi o'quvchilarning badiiy adabiyotlarni kam o'qishi natijasida yozma ishlardan oqsashlari, yozuv qoidalarini buzib, turli xatoliklarga yo'l qo'yishlari haqida kuyinib yozadi. Pedagog-shoir Sulton Jo'ra ta'lim-tarbiya ishidagi bunday nuqsonlarni tugatishda o'quvchilarga yordam maqsadida «Kimning xati chiroyli», «Tinish belgilarning majlisi», «Harflar paradi» she'rlarini yozdi. Sulton Jo'ra bolalarga o'zbek tili grammatikasi qoidalarini bilish zarurligini obrazli tilda tasvirlab

bera oldi. Chiroyli yozishni katta bir san‘at deb uqtirdi. «Kimning xati chiroyli» she‘rida bolaning sog‘lom, baquvvat bo‘lib kamol topishida, yozma nutqining go‘zal bo‘lishida partada to‘g‘ri o‘tirish qoidasiga ham qat‘iy rioya qilish muhim ekanligini tushuntirdi.

«Tinish belgilarning majlisi» she‘ri shoir ijodiy faoliyatida katta ahamiyatga ega. She‘r o‘zbek tilining eng muhim qoidalari - tinish belgilarning vazifalari bolalarga mos holda jonlantirish usulida badiiy tasvir vositasi orqali ifoda etiladi. Har bir tinish belgisi qo‘llanishiga mos holda gapirtiriladi. Shuningdek, shoir o‘xshatishdan ham ustalik bilan foydalanib, undov belgisini mirzaterakka, nuqtani koptokka, so‘roq belgisini o‘roqqa, vergulni kichik to‘qmoqqa, qo‘sh tirnoqni qiziqchilarga, tireni gugurtga o‘xshatib, shoirona tasvirlaydi. Bunday o‘xshatishlar tinish belgilarni oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Sulton Jo‘ra Vatan urushi davrida yaratgan asarlarida nemis-fashistlarning butun yovuzliklarini ochib tashladi. Shoir 1942 yilda harbiy xizmatga chaqiriladi. U dushmanga qarshi ham qurol, ham qalam bilan jang olib bordi. Uning «To‘pchi Muhammad», «Pulemyotchi ovozi», «CHavandoz», «Uch og‘ayni botirlar», «Nayzamiz», «Jahon seni olqishlar», «Berlin aptekasida», «Sog‘inib», «Sog‘inchli salom», «Salom xat» she‘rlari urush davri mahsulidir. Shoir Sulton Jo‘ra «Sog‘inib», «Sog‘inchli salom», «Salom xat» she‘rlari bilan bolalar adabiyotida she‘riy xat janrining yuksalishiga barakali hissa qo‘shdi. Bu davrda yaratilgan she‘riy xatlar, jangchining o‘z yoriga, ota-onasiga, jigarbandlariga yo‘llagan maktublari shaklida bo‘lib, ularda urush davrining eng muhim tomonlari aks ettirildi. Shoirning bu she‘rlari bolalarni Vatanga, uni jon-dilidan sevuvchi mehribon otaga muhabbat, dushmanga nafrat ruhida tarbiyalashda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Shoir vafotidan so‘ng, 1951 yilda rus va o‘zbek tillarida «Tanlangan asarlar», «Havorang gilam», «Zangori gilam», «Bruno», «Parvoz», «Qaldirg‘och» kabi kitoblari bosilib chiqdi.

MAVZU: Adham Rahmat - bolalar ijodkori.

REJA:

- 1. Adham Rahmat hayoti va ijodi.**
- 2. Adham Rahmat lirikasi.**
- 3. Shoirning Vatan urushi davridagi va keyingi asarlari.**
- 4. Shoirning nasriy asarlari.**

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". 2008.
2. Karimov I. A. Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. // "Tafakkur", 1998, 2-son.
3. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent , 2002
4. O'zbek bolalar antologiyasi. -T.: Sharq., 2005.

Adham Rahmat o'z ijodi bilan Zafar Diyor, Majid Fayziy, Ilyos Muslim, Q.Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Hakim Nazir singari o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishiga munosib hissa qo'shgan adiblardan biridir. U 1909 yilda Q o' qon shahrida tug'ildi. 1921-23 yillarda bolalar uyida tarbiyalandi. 1926 - 28 yillar orasida Toshkent tibbiyot texnikumida o' qidi va bir qancha maktablarda o' qituvchilik qildi. 1930-35 yillarda shoir «Yangi Farg'ona» gazetasida, so'ng O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Q o' qon bo'limida ishladi. U Vatan urushigacha O'zbekiston Davlat nashriyotida, hozirgi «Turkiston» gazetasida hamda O'zbekiston radiosining bolalar adabiyoti bo'limida ishladi. Shoir Vatan urushi davrida front ro'znomalarida, «Qizil O'zbekiston» gazetasida adabiy xodim bo'lib ishladi, so'ngra O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyotida muharrirlik qildi.

A.Rahmatning ijodi 1930 yilda «Yangi Farg'ona» gazetasida bosilgan «Oq oltin haqida qo'shiq» nomli she'ri bilan boshlandi. Shundan so'ng shoir bolalarga 1939 yilda «Baxtli yoshlik» nomli birinchi she'rlar to'plamini taqdim etdi. Bu to'plam o'ndan ortiq she'r va ertaklarni o'z ichiga oladi. Kitob «Yasha, Vatan!» she'ri bilan boshlanadi. Shoir A.Rahmat birinchi navbatda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kuychisi sifatida e'zozlanadi. Shoirning jajjilarga bag'ishlab yozgan quvnoq she'rlari, o'ynoqi qo'shiqlari, ajoyib-g'aroyib ertak-dostonlari har bir xonadonga, bolalar bog'chalariga kirib borgan.

«Baxtli yoshlik» to'plamida kichik yoshdagi bolalar uchun yozilgan «Keling, qushlar» «Bizning bog'chamiz, «Hayvonot bog'ida» «Pilla qurti boqamiz», «Oilamiz» she'rlari, «Qurbaqa», «Qaldirg'och, ilon va beshiktervatar», «Tulkining hiylasi» singari ertak-masallari eng xarakterli ahamiyatga egadir. Bu asarlari bilan shoir maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni qushlar, parrandalar, hayvonlar hayoti, ularning kundalik mashg'uloti, oziq- ovqati bilan yaqindan tanishtiradi. Masallarni yaratishda shoir xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalanib, ularni bolalar dunyokarashiga moslashtiradi.

SHuningdek, 1939 yilda bosilib chiqqan «Dum» sheʼri ham mazmuni bilan bolalarning diqqatini jalb qiladi. Asar bolalarning tushunchasini kengaytirishda va soʻz boyliklarini oshirishda katta oʻrin egallab, ularni aqlli, fahm-farosatli boʻlishga daʼvat etadi, ortiqcha oʻy-xayollarga berilmaslikka chaqiradi.

Fahm-farosatsiz pashshaning oʻziga yarashqli dumi bor hayvon, jonivorlarni koʻrib ularga boʻlgan havasi hasadga aylanib, oʻzida ham shunday dum boʻlishini orzu qiladi. U oʻzining bu orzu-havasini amalga oshirish maqsadida turli jonivordan dum soʻrab, oʻzini sharmanda qiladi. U kiyikdan dum soʻraganda, kiyik unga shunday javob qiladi: Oʻzing qanday mahluqsan, Dumni berib boʻlmaydi. Agar dumim boʻlmasa, Bolalarim k oʻrmaydi. Quvib qolsa boʻrilar, Bekinaman oʻrmonga, Dumim koʻrgan bolalar, Meni topib oladi.

Pashsha baliq, tulki, sigir kabi jonivordan dum soʻrashdan davom etadi. Dumni olishni hech iloji yoʻq ekanligini tushunmagan pashsha, oʻzining axmoqligi bilan oxiri sigir dumidan dakki yeb, oʻladi. Shoir bu asari bilan kiyik, sigir, baliq, xoʻroz obrazlari orqali bolalarga turli hayvon va parrandalarning tuzilishlarini, ularning hayotlarini hikoya qilib beradi, pashshaning zararkunanda hasharot ekanligini ham ochib beradi.

Muallif 1940 yilda «Zavqli allalar» sheʼriy toʻplamini nashr ettiradi. Bu toʻplamning boshqa kitoblaridan farqi masal va ertaklardan iboratligidir. Shoir oʻz oldiga qoʻygan maqsadini bolalarning ruhiyatiga, yoshiga mos qilib yorita olishga intiladi va ijodiy muvaffaqiyatlarga erishadi.

Aynan shu yili shoirning «Sheʼrlar» toʻplami ham bolalarga taqdim etildi. U oʻtmishdagi ogʻir va hozirgi quvnoq hayotini «Yoshlik», «Bu kungi onaning allasi» sheʼrlarida, oʻquvchi bolalarning oromgohlarda quvnab dam olayotganligini «Istirohat kechasi», «Kanikul kunlari», «Birinchi sentyabr» kabi asarlarida aks ettirdi. A.Rahmat oʻz ijodida bolalar hayotini yanada chuqurroq tasvirlashga intiladi. Hayot haqiqatini toʻgʻri, badiiy mukammal, sodda va tushunarli qilib ifodalaydi.

SHoir Vatan urushi davrida frontdagi jangchilarni ulugʻladi, front orqasida fidokorona mehnat qilayotgan kishilar obrazini yaratdi. U «Onamning aytganlari» sheʼrida oʻz oʻgʻlini frontga joʻnatayotgan vatanparvar onaning lirik obrazini chizadi:

Xayr oʻgʻlim, xayr qoʻzim, yaxshi bor,
El-u xalqlar doim senga madadkor,
Baxtli yoshlik, tinch keksalik uchun bor,
Dushmanlarga yer yuzini qilgin tor.
Yiqit yovni ayamayin tap bosib,

Vatan oʻgʻli uchun budir munosib. Muallif oʻz sheʼrida onaning yurak soʻzlari orqali bir vaqtning oʻzida Vatan uchun fidokor ona va oʻgʻil obrazini yaratadi. Shoirning 1942 yilda yozgan «Meni kut» sheʼrida esa mehribon otaning vatanparvarlik tuygʻulari, porloq kelajak uchun kurashgan otalarning kelajakka umid bilan qarashlari ifodalanadi. Shuningdek, «SHinel», «Okop qoʻshiqlari, «Sogʻinish soatlarida» (oʻgʻli Hayotjonga bagʻishlangan), Gʻalabaga chorlagan maktub», «Oʻlmas qahramon», Kurash yoʻllari», «SHinelli qizlar» kabi sheʼrlari ham koʻtarinki ruhda yaratilgan.

Shoirning urushdan keyingi tinch qurilish yillarida yozgan asarlarining asosiy qahramoni ijodiy mehnat kishilari va ularga astoydil yordam berayotgan baxtiyor bolalar obrazi boʻldi. A.Rahmatning «Oilamiz», «Oʻlkamizning tongi otmoqda»,

«Qosim qaysar», «Hur o'lka», «To'rtinchilar», «She'r va ertaklar», «Yoz oylari» singari she'rlarida bolalardagi ishchanlik, o'qishga tirishqoqlik, mehmondo'stlik fazilatlarini ulug'laydi. A.Rahmat nasr janrida ham samarali mehnat qildi. Uning «Izlarni izlab», « Abdulla Nabiev», «Do'stlik» qissalari hamda «Botir bola» kabi ertak-dostonlari bolalarda ajoyib xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

CHET EL BOLALAR ADABIYOTI

Reja:

1. O'zbek bolalar kitobxonligida chet el adabiyotining o'rni.
2. Rus bolalar asabiyotining badiiy xususiyatlari.
3. Chet el bolalar adabiyotining o'zbek bolalar adabiyotiga ta'siri.

Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining rivojlanishib, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarining o'rni ahamiyati katta. Negaki tarjima asarlarini o'qigan har bir yosh kitobxonning dunyo xaqidagi fikri tasavvuri boyib o'sha xalqlarning yashash sharoitlari, urf –odatlar, mehnatlari, orzu- intilishlari bilan oshno bo'ladilar.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan –elga ,tildan-tilga o'tib dillarni yashnatib yurgan “Qizil Shapkacha”(SH.Perro), “Robinzon Kruzo” (D. Defo), “Gulliverning sayohatlari”(J.Svift), “Dyumchaxon”(X.Andersen), “ Oltin baliq”(A.S.Pushkin), “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, “Shahzoda va gado”,(M.Tven), “Kapitan Grant bolalari”, “Ostin-ustun”(J.Vern), “Don Kixot”(J.Servantes) kabi asarlar yosh qalblarda olamga nisbatan qiziqishlari jo'sh urdirib yuboradi.

XX asrda bunyod etilgan “Maugli”(R. Kipling), “Kichkina Shahzoda” (A.de Sent- EkzYuperi), “Katta va kichik Karlson”(A.Lindgren), “Toshkent –non shahri”(A.Neverov), “Vinni Pux”(A.Miln), “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”(S.Marshak), “Uch baqaloq”(Yu.Olesha), “Quvnoq Jaqbaqlar”(B. Kerboboyev), “Doktor Aybolit”(K. Chukovskiy), “Timur va uning komandasi” (A.Gaydar), “Chipolinaning sarguzashtlari”(J.Rodari), “Styopa amaki”(S.Mixalkov), “Kim bo'lsam ekan?”(V.Mayakovskiy), “Bilmasvoy quyosh shaxrida”(N.Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o'zbek kitobxon bolalarida ham katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimagadir o'rgatadi,nimagadir da'vat etadi.Bu asarlarning katta ko'pchiligida ona-Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish (“Uch baqaloq”); noshukir bo'lmaslik, ota-ona pand-nasixatiga quloq solish (“Ahmoq sichqoncha haqida ertak”);inson va insonga mehr (“Maugli”);tabiatini asrash, hayvonat olamini sevish(“Doktor Aybolit”);odamlar xizmatini qilish, beminnat yordam ko'rsatish(“Temur va uning komandasi”); o'ziga pishiq-puxta bo'lish, ichki sirlarni o'zgalarga oshkor qilmaslik (“Qizil Shapkacha”);namunali o'qish, kasb-hunar egasi bo'lish (“Kim bo'lsam ekan?”); sergak, tadbirkor, quvnoqlikka intilish (“ QuvnoqJapbaqalar”)dek olijanob g'oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini o'stiradi.

SHARL PERRO
(1628-1703)

Buyuk fransuz shoiri va tanqidchisi Sharl Perro o'z elining badiiy ertak asoschisi sifatida ma'lum va mashhurdir. U o'zining "Qizil shapkacha", "zolishka" va "Etik kiygan mushuk" asarlari bilan jaxonga tanildi.

Sh.Perro badiiy ertaklar ijod etishdan oldin xalq og'zaki ijodini mehr va ishtiyoq bilan chuqir o'rgandi. Shuning uchun ham u o'z ertaklarida xalq umidlarini dadil ilgari surdi. Perroning qahramonlari o'z mexnat sevarliklari hamda saxiyliklari bilan ajralib turadilar. G'arazgo'ylik, maqtanchoqlik, qizg'anchilik o'rnini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda.

Sharl Perroning "Havorang soqol", "Bob", "Eshak terisi", "Uyqudagi malika" kabi ertaklari ham xuddi "Qizii shapkacha" kabi bolalarbobdir.

DANEL DEFO

XVII-XVIII asr ingliz adabiyotiga, jumladan, roman janriga asos solgan mashhur adiblardan biri Daniel Defo bo'ldi. U publisist hamda jo'rnalist sifatida ham o'sha yillarda Angliyada va umum yevropada nom chiqardi. 1660-yilda London shaxrida savdogar oilasida dunyoga kelgan Defoningbutun o'tmishi ajoyib-g'aroyib voqealarga boy bo'ldi.

Depo maqola, pamfletlardan tashqari "Robinzon Kruzo", "Robinzon Kruzoning kiyingi sarguzashtlari", "Robinzon Kruzoning jiddiy mulohazalari", "Kapitan Singleton", "Kavalerning memuarlari", "Mashhur Moll Flendersning quvonch va tashvishlar", "Polkovnik Jakning tarixi va sarguzashti hayoti" kabi romanlar; iqtisod, tarix pedagogika, geografiya, falsafaga bag'ishlangan o'nlab kitoblar yozdi.

Defo garchand Robinzon Kruzo haqida uchta roman yozgan bo'lsada, eng samaralisi, uning nomini jaxonga yoygani "Robinzon kruzo"(1719)bo'ldi. U bu kitobga 1713 yilda ingliz yozuvchisi Richard Stil tomonidan shatlandiyalik matros Aleksandr Selkrik ocherkini asos qilib oldi. Aliksandr Selkrit-Robinzon Kruzo 1676 yilda Shatlandiyaning Larga shaxrida etikdo'z oylasida tug'ilgan.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

2. Karimov I. A. “Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin” maqolasining mohiyati. // “Tafakkur”, 1998, 2-son.
3. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida folklor namunalari
4. Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotga ta'siri
5. O'zbek xalq lirikasida ramzlar
6. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati
7. Xalq og'zaki ijodida epik homiyalar obrazining badiiy talqini
8. O'zbek mifologiyasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari
9. O'zbek xalq og'zaki ijodida tush motivi
10. Ertaklarda dev obrazining badiiy talqini
11. Kundalik maishiy olqishlar
12. An'anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi qo'shiqlar
13. Qarg'ishlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
14. Shox moylar marosimining o'ziga xosligi
15. Shamol chaqirish marosimining tarixiy ahamiyati
16. Beshik qo'shiqlari folklori
17. Xalq marosimida laparlarning o'rni
18. Xalq afsunlari haqida
19. Mehnat qo'shiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati
20. Terma janri haqida
21. Xizr-obrazining mifologik talqini
22. Sehrli ertaklarda miflarning o'rni
23. Xalq og'zaki ijodida raqamlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
24. Dostonchilik maktablari haqida
25. “Go'ro'g'li-dostonlarida turkumlik”
26. Bolalar o'yin folklori. Sanamalar haqida ma'lumot.
27. A. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarining g'oyaviy-badiiy mohiyati.
28. Ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” asarlari tahlili.
29. Yu.X. Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida axloq-odob masalalarining yoritilishi.
30. Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asarining tarbiyaviy ahamiyati.
31. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, insoniy fazilatlarning ulug'lanishi.
32. Gulxaniy g'azallarining g'oyaviy mazmuni.
33. A. Avloniyning didartik asarlari badiiyati.
34. I. Ibratning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarining g'oyaviy-badiiy mohiyati.
35. M. Behbudiy asarlarining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati.
36. Hamza she'rlarida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ulug'lanishi.
37. S. Ayniy qissalarining badiiy tahlili. (“Odina”, Eski martab” asarlari misolida.)
38. Oybek she'riyatining badiiy tahlili.
39. Uyg'unning dramatik asarlarida tarixiylik.
40. Sulton Jo'raning “Tinish belgilar majlisi” sherida badiiy-tasviriy vositalarning ifodalanishi.
41. Nosir Fozilovning bolalar nasriga qo'shgan hissasi.
42. Anvar Obidjon she'riyatida tasviriy vositalarning ifodalanishi.

43. V.V. Mayakovskiyning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissi. "Kim bo'lsam ekan?" she'rining badiiy tahlili.
44. D. Defoning "Robinzon Kruzo" asarining badiiy tahlili.
45. J. Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asarining badiiy tahlili.
46. J. Vernning "O'n besh yoshli kapitan" asarining g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy jamiyat mavzusining badiiy tasviri.
47. O'zbek bolalar matbuotining shakllanish bosqichlari. Istiqlool davri o'zbek bolalar matbuotining taraqqiyoti.

Pedagogika va psixologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti uslubiyoti kafedrası
"Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan 2 kurs talabalari uchun yakuniy nazorat
savollari

1-variant

1. O'zbek bolalar publitsistikasining o'ziga xos xususiyatlari
2. O'zbek folklorining o'rganilish tarixi
3. X.To'xtaboyevning "sariq devni minib" qissasi mohiyati
4. Doston, g'azallardan namunalar yod ayting

2-variant

1. O'zbek bolalar oynomalari xususida
2. H.Nazirning "Yonar daryo" qissasini g'oyaviy mazmuni
3. Ertak haqida tushuncha. Maishiy ertaklarning g'oyaviy mazmuni xususiyada.
4. Bolalar o'yin folklori

3-variant

1. S.Barnayevning bolalar publitsistikasini shakllanishiga qo'shgan hissi
2. X. To'xtaboyev hikoyalarda mazmun va g'oya
3. H.Olimjon poemalari xususida
4. SH.Sa'dulla ijodida tabiat va bahor mavzui

4-variant

1. Og'zaki drama haqida.Bolalar teatrlarining o'ziga xos xususiyatlari
2. X. To'xtaboyev hayoti va ijodi
3. A.Raxmat she'rlaridan yod aytish
4. Doston, g'azal, she'rlardan namunalar yod ayting.

5-variant

1. Adham Rahmat ijodi. SHE'rlarining badiiy tahlili
2. D.Defaning "Rabinzon Kruzo" asarining g'oyaviy mazmuni haqida
3. SH. Sa'dulla she'rlaridan yod ayting.
4. G'.G'ulom hayoti va badiiy olami

6-variant

1. S.Jo'raning "Havorang gilam" ertagining mohiyati
2. H.Nazir asarlarining badiiy-tarbiyaviy ahamiyati
3. O'zbek folklorining o'rganilish tarixi va taraqqiyoti

4. Z. Diyor bolalar iojkori

7-variant

1. S.Jo‘raning ulug‘ vatan urushi davridagi ijodi
2. Doston haqida tushuncha va uning turlari
3. L.N.Tolstoyning didaktik hikoyalarning tarbiyaviy ahamiyati
4. Bolalar tez aytishlari va so‘z o‘yini

8-variant

1. H. Nazir hayoti va ijodi
2. Og‘zaki dramaning g‘oyaviy-tematik yo‘nalishi
3. Pushkin ertaklarining mavzu yo‘nalishi
4. A. Rahmat she‘rlaridan yod ayting

9-variant

1. Bolalar oynomalarining dastlabki namunalari
2. X. To‘xtaboyev fantastika janridagi ijod mahsuli
3. Sulton Jo‘ra she‘rlaridan yod ayting.
4. Maqol va uning tasnifi. Axloq-odob, do‘stlik mavzularida maqol

10-variant

1. A.Avloniy hayoti va ijodi
2. X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanining g‘oyaviy mazmuni
3. Qadimgi folklor namunalari haqida (mif, ibtidoiy tasavvurlar)
4. Pushkin, Nekrasov she‘rlaridan yod ayting.

11-variant

1. Istiqlool davri bolalar oynomalarining dolzarbligi
2. H.Nazirning “Shahardan tashqariga”, “Kir to‘p g‘o‘za” hikoyalarining asosiy mazmuni
3. M.Gorkiy bolalar adabiyoti haqida
4. A. Rahmat she‘riyati

12-variant

1. A.Navoiyning “Hamsa” asari xususida to‘liq ma’lumot
2. S.Jo‘raning “Tinish belgilarining majlisi” she‘rining badiiy va ma’rifiy ahamiyati
3. Mehnat qo‘shiqlarining mohiyati haqida
4. J.Sa’dulla she‘riyati

13-variant

1. H.Nazir hayoti va ijodi
2. SH.Perro, aka-uka Grimmlar asarlari haqida
3. Adham Rahmat she‘riyati
4. Mehnat qo‘shiqlarining mohiyati haqida

14-variant

1. Bolalar oynomalarining dastlabki va keyingi namunalari
2. Kaykovusning “Qobusnoma” asari haqida
3. “Sariq devni minib” qissasining tarbiyaviy ahamiyati
4. “Kalila va Dimna” asari xususida

15-variant

1. J.Sa’dulla hayoti va ijodi
2. Doston va uning tasnifiy belgilari

3. S.Y.Marshak bolalar ijodkori sifatida “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, “Stol kelgan qayerdan?” she’rlarining badiiy tahlili
4. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida

16-variant

1. Adham Rahmat hayoti va ijodining mavzu qamrovi
2. Chet el bolalar ijodkorining ijod mahsuli
3. M.Gorkiyning ijod mahsuli
4. Folklorning o‘ziga xos xususiyatlari va tarmog‘i

17-variant

2. 1. Folklorshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari
3. Qadimgi qahramonlik eposi
4. Beshik qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati

18-variant

1. O‘zbek morfologiyasining shikllanishi va tarqqiyot bosqichlari
2. o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tush motivi
3. Dostonchilik maktablari baxshichilik san’ati xususida

19-variant

1. Tarixiy qo‘shiqlarning tasviriy xususiyatlari
2. Mavsum qo‘shiqlarining an’anaviyligi
3. Qahramonlik, romanik dostonlarning badiiyati. Dostonlardan parchalar yod aytish.

20-variant

1. Topishmoqlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
2. Afsona va uning g‘oyaviy-tematik yo‘nalishiga ko‘ra turlari
3. Maishiy ertaklar va ularning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni

21-variant

1. Tarixiy rivoyatlar va ularning syujet tuzilishi
2. Bolalar qo‘shiqlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
3. Masxaraboz va qiziqchilar teatri

22-variant

2. 1. O‘zbek morfologiyasining shikllanishi va tarqqiyot bosqichlari
3. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tush motivi
4. Dostonchilik maktablari baxshichilik san’ati xususida

23-variant

1. Beshik qo‘shiqlari folklori
2. Mehnat qo‘shiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati
3. Ertak janri haqida

24-variant

1. Qadimiy qo‘shiq va termalar
2. Qo‘shiq atamasi va uning joriy belgilari
3. Og‘zaki dramaning o‘ziga xos xususiyatlari va g‘oyaviy termatik rang-barangligi

25-variant

1. Lirik qo‘shiqlar haqida

2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklorining tarixiy asoslari va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
3. Bolalar folklori va uning janriy xilma-xilligi

26-variant

1. Toponimik rivoyatlarning o'ziga xosligi
2. Bolalarning mavsumiy qo'shiqlari va ularning bola tarbiyasida tutgan o'rni
3. Og'zaki dramaning bola tarbiyasida tutgan o'rni

27-variant

2. 1. Karimov I. A. "Jamiyatimizda mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishda xizmat qilsin" maqolasining mohiyati
3. Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida folklor namunalari
4. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslariva badiiyati

28-variant

1. O'zbek folklorining taraqqiyot bosqichi
2. Qadimgi miflar haqida ma'lumot
3. Mehnat qo'shiqlarining badiiy tahlili

29-variant

1. O'zbek folklorshunosligining tarmoqlari
2. Maqollarda xalq donishmandligining ifodalanishi
3. Rivoyat tushunchasi haqida

30-variant

1. Lirik qo'shiqlar haqida
2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklorining tarixiy asoslari va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
3. Bolalar folklori va uning janriy xilma-xilligi

«Bolalar adabiyoti va folklor» fanidan

TEST SAVOLLARI

- 1. «Folklor» atamasining lug'aviy ma'nosini anglatgan javobni toping.**
 - *A) Xalq donoligi yoki xalq donishmandligi
 - B) og'zaki adabiyot
 - C) xalq ijodi
 - D) xalq ijodkorligi yoki xalq tarixi
- 2. Folklor asarlarining anonimligi deganda nimani tushunasiz?**
 - *A) folklor asarlarini muallifining noaniqligi
 - B) folklor asarlari muallifining aniqligi
 - C) folklor asarlarining qadimgi xususiyatlari
 - D) folklor asarlarining individualligi
- 3. Folklorshunoslik fani necha tarmoqdan tarkib topgan?**
 - A) bir tarmoqdan
 - *B) uch tarmoqdan
 - C) o'n tarmoqdan
 - D) besh tarmoqdan
- 4. «Alpomish» dostonida Alpomish necha yildan so'ng chohdan bandilikdan ozod bo'ladi?**
 - A) besh yildan so'ng
 - B) uch yildan so'ng
 - *C) yetti yildan so'ng
 - D) to'rt yildan so'ng
- 5. «To'maris» afsonasida Sparganisni o'ldirish xiyilasini kim o'ylab topgan?**
 - A) Doro
 - B) Saksfar
 - *C) Krez
 - D) Kir
- 6. Qaysi asarda turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog'liq mehnat va marosim qo'shiqlari keltirilgan?**
 - *A) «Devonu lug'otit-turk»
 - B) «Shoh Mashrab» qissasi
 - C) «Qissasi Rabg'uziy»
 - D) «Qutadg'u bilig»
- 7. Quyidagi ertaklarning qaysi biri adabiy ertak hisoblanadi?**
 - A) «Uch og'ayni botirlar»
 - *B) «Oygul bilan Baxtiyor»
 - S) «Malikai Xusnobod»
 - D) «Xusniyabonu»
- 8. Tilla kokilli bolaning oynai jahonnamoga ega bo'lishi voqealari qaysi ertakda bayon qilinadi?**
 - A) Guldursun
 - B) «Husniyabonu»
 - *C) «Susambil»

D) “Guliqahqah”

9. Afsona va rivoyatlardan qaysi janrlarda foydalanib bo’lmaydi?

*A) farz, chiston

B) hikoya, badia

C) doston, qissa

D) she’riy roman

10. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrida xalqning hikmatona so’zlari uzoq davrlar mobaynida o’zgarishsiz ifodalanib kelinadi?

A) topishmoq

B) ertaklar

C) masal

*D) maqol

11. Ergash shoir “Ravshan” dostonini kimlardan o’rgangan?

A) Ergash shoir bobosi Jumanbulbuldan, u esa otasi bo’ronboydan o’rgangan

B) Ergash shoir otasi Fozil shoirdan, u esa otasi Yo’ldosh shoirdan o’rgangan

*C) Ergash shoir otasi Jumanbulbuldan, u esa bobosi Kattabo’rondan o’rgangan

D) Ergash shoir otasi Jumanbulbuldan, u esa ustoz Kichikbo’rondan o’rgangan

12. Xalq og’zaki ijodiga mansub bolalar qo’shiqlari qaysi javobda ko’rsatilgan?

A) “Yalla”, “Kedin salom”, “Nima-nima deysiz”

B) “Mayda-mayda”, “Galdir”, “Qo’sh haydash”

C) “Choymomo”, “Yo xaydar”, “Alla”, “Kim oladi”

D) “Boychechak”, “Ramazon”, “Oq terakmi ko’k terak”

13. Hunarmandchilik qo’shiqlari ko’rsatilgan javobni toping.

A) Sevgi, o’rmak qo’shiqlari

B) Kashta, sog’im qo’shiqlari

C) Yor-yorlar, charx qo’shiqlari

*D) O’rmak, charx, kashta qo’shiqlari

14. Maqol atamasining lug’aviy ma’nosi to’g’ri qayd etilgan javobni toping.

*A) Mavol atamasi arabcha - “qavlun” – gapirmoq, aytmoq

B) Forscha-jumboq-topmoq, tez aytuv

C) Turkiy-qo’shmoq-tez aytish, kuylamoq

D) Fors-tojikcha-gapirmoq, otalar so’zi

15. “Yer tagida oltin qoziq” topishmog’ida badiiy vositalarning qaysi biri qo’llangan?

A) snekdoxa

B) mubolag’a

C) istiora

*D) metafora

16. “Shox moylar” marosimi qaysi mavsum bilan bog’liq marosim folklori tarkibida o’rganiladi?

A) mavsumiy marosimlar folklori tarkibida

B) oilaviy – maishiy marosim folklori tarkibida

C) yomg’ir chaqirish marosimlari folklori tarkibida

D) bahorgi mavsum bilan bog’liq marosimlari tarkibida

17. Mehnat qo’shiqlarining to’g’ri guruhlariga ajratilgan qatorini ko’rsating.

*A) dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik

- B) hunarmandchilik, kashtachilik, lirik qo'shiqlari
- C) hunarmandchilik, qo'shchilik, chorvachilik
- D) chorvachilik, kashtachilik, qo'shchilik

18. Hunarmandchilik qo'shiqlari to'g'ri ko'rsatilgan mehnat qo'shiqlarini toping.

- *A) Charx, bo'zchi, o'rmak, kashta qo'shiqlari
- B) Charx, ho'sh – ho'sh, churiyalar
- C) o'rim, yanchiq, kashta qo'shiqlari
- D) bo'zchi, o'rim, charx qo'shiqlari

19. “To'maris” ning o'ziga xos aks-sadolari mavjud bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub doston qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) “Erali va Sherali”
- B) “Xon Dalli”
- C) “Alpomish”
- *D) “Oysuluv”

20. Toptishuv, baxslashuv, aytishuv-hazil-mutoyiba, mubolag'a, badihago'ylik asosida ijro etiladigan folklor janrlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- 1. Lapar; 2. Lof; 3. Askiya; 4. Marsiya; 5. Topishmoq; 6. Terma;
- A) 1, 2, 3, 6.
- B) 1, 2, 3, 4, 6.
- *C) 1, 2, 3, 5.
- D) 1, 2, 3.

21. Ikki asrandi o'g'ilni tarbiyalab olgan qahramon nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Alpomish
- B) Boybo'ri
- C) Toychixon
- *D) Go'ro'g'li

22. Mavsumiy marosim qo'shiqlariga kiruvchi “Sust xotin” qo'shig'idagi Sust xotin kim?

- A) dala qo'riqchisi
- *B) keksa ayol libosidagi qo'g'irchoq
- C) chaqmoq xudosi
- D) osmon suvlari xudosi

23. Naql termini yaqin va o'rta Sharq xalqlari orasida qanday nom bilan yuritilgan?

- *A) Zarbulmasal
- B) Donolar falsafasi
- C) Topishmoq
- D) Rivoyat

24. Rivoyatlarning tematik jihatdan to'g'ri ko'rsatilgan qatorini toping.

- *A) tarixiy va toponimik rivoyatlar
- B) tarixiy va adabiy rivoyatlar
- C) adabiy va geografik rivoyatlar
- D) tarixiy va mifologik rivoyatlar

25. Qaysi qatorda naql atamasining janriy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janri

*B) Xalq og'zaki nasrining majozga asoslangan mustaqil janri

C) Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy janrlaridan biri

D) Xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan janr

26. Ertak atamasi ilk marotaba qaysi yozma manbada tilga olinadi?

*A) M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida

B) A. Navoiyning "Majolisun navois" asarida

C) Yusuf xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida

D) Xadislarda tilga olinadi

27. Ertak janriga xos xususiyatlar berilgan qatorni ko'rsating.

*A) hayot haqiqati bilan bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'izaki hikoyadir.

B) hayotiy voqealarini hayotiy uydurmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janri.

C) xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plangan tajribalari, ko'zatishlari asosida yuzaga kelgan janr.

D) xalq og'zaki nasrining majozga asoslangan mustaqil janri.

28. Dostonlarda boshlanma qaysi muhim shartlarni o'z ichiga oladi?

1) voqeaning uzoq o'tmishga oid ekanligi

2) voqea o'rni;

3) qahramonning ajdod-avlodi sharaji;

4) qahramonning sarguzashti; 5) voqea sodir bo'lgan joylar. 6) qahramonning murod-maqsadi.

A) 2, 5, 6.

B) 1, 2, 3, 4, 5, 6.

*C) 1, 2, 3.

D) 1, 2, 4, 6.

29. "Alpomish" dostonida boshqa dostonlarga nisbatan qanday xususiyat ustunlik qiladi?

A) xayoliylik

*B) qahramonlik

C) hayotiylik

D) mubolag'aviylik

30. Dostonlarning nasriy qismida badiiy usullardan qaysi biri ko'proq qo'llangan?

A) irsoli masal

B) talmeh

C) tamsil

*D) saj'

31. "Alpomish" dostonida kurashda Ko'kaldoshni yiqitishda qiynalgan Alpomishga ma'naviy madad bergan inson –

*A) Barchin

B) Qaldirg'och

C) Boychibor

D) Tovka

32. “Kuntug’mish” dostonida Xolbeka sovchilarga qanday shart qo’yadi?

A) shaxmat o’yini

B) kurashni

C) kamon tortishni

*D) ot choptirishni

33. “Ravshanxon bu bog’ devorlariga qarasa tik paxsani ishlagan, devorning tagini g’ishtlangan juda mahkam qilib tashlagan”

Ushbu matn qaysi dostonidan olingan va qanday badiiy san‘at ifodalangan?

*A) “Ravshan” saj‘

B) “Kuntug’mish” tamsil

C) “Ravshan” qofiya

D) “Yodgor” radif

34. Folklor va yozma adabiyotdagi dostonlar bir-biri bilan qaysi jihatiga ko’ra jiddiy farqlanadi?

A) g’oyasiga ko’ra

B) nasriy va nazmiy yo’l bilan yozilishiga ko’ra

C) qahramonlariga ko’ra

*D) hayotni tasvirlash vositasi va usullariga ko’ra

35. “Yorg’ichoq” qo’shig’i mehnat qo’shiqlarining qaysi turiga kiradi?

A) marosim

B) mavsum

C) chorvachilik

*D) dehqonchilik

36. Qaysi doston qahramoni o’z suratini qog’ozga soldirib, ichini mumlab, sirtini tilla bilan qoplab, soch tolasini suratga o’rab oshig’iga junatadi.

*A) “Kuntug’mish” dostonida Xolbeka

B) “Ravshan” dostonida Daller

C) “Kuntug’mish” dostonida Oppoqoy

D) “Alpomish” dostonida Bodom bikach

37. Romantik dostonlar qaysi qatorda to’g’ri berilgan?

A) “Go’rug’li”, “Kuntug’mish”, “Yodgor”

*B) “Kuntug’mish”, “Yusuf va Ahmad”, “Gurug’li”

C) “Murodxon”, “Alpomish”, “Layli va Marnun”

D) “Rustamxon”, “Yodgor”, “Zevaxxon”

38. O’zbek allalarining kompozitsion jihatdan to’g’ri ko’rsatilgan qatorini toping.

*A) voqeaband va parokanda allalar

B) syujetli va yechimli allalar

C) voqeaband va yechimli allalar

D) parokanda va syujetli allalar

39. Maishiy ertaklar ko’rsatilgan qatorni belgilang.

*A) “Ayozi”, “Uch og’a-ini botirlar”, “Ozodachehra”, “Ziyod botir”

B) “Oltin tarvuz”, “Nodon bola”, “Ilon og’a”, “Bo’ri qiz”

C) “Tulki bilan xo’roz”, “Ikki boyqush”, “Hiylagar bedani”

D) “Kuygan chol”, “To’rt yalqov”, “Oltin tarvuz”

40. Mavzuviy xususiyatiga ko’ra qahramonlikni hikoya qiluvchi ertaklar, uch og’a-ini sarguzashti, o’gaylik va kamsitilgan kishilar va “mitti polvonlar” xaqidagi ertaklarning qaysi ko’rinishda uchraydi.

*A) sehrli ertaklar

B) hayvonlar haqidagi ertaklar

C) maishiy ertaklar

D) satirik ertaklar

41. Qaysi xalq og’zaki ijodi janri nozik, ko’p ma’noli so’z, mayin kinoya, qochirishlardan iborat bo’lgan kulgili hikoyani anglatadi.

A) Askiya

*B) Latifa

C) Maqol

D) Topishmoq

42. O’zbek xalq dostonlari to’g’ri tasnif qilingan qatorni belgilang.

A) qahramonlik, romantik va tarixiy

B) ishqiy romantik, tarixiy va kitobiy

C) jangnoma, kitobiy qahramonlik

*D) romanik, qahramonlik va yangi dostonlar

42. “Go’ro’g’li” turkumiga oid dostonlarining ikkinchisini qaysi doston tashkil etadi?

A) “Yunus pari”

B) “Shohdorxon”

C) “Rayxon arab”

*D) “Zaydinoy”

43. Oh ursa olamni buzar tovushi

To’qson molning terisidan kovushi

Ushbu misralarda tasvirlangan badiiy tasvir vositalarini toping.

A) sifatlash

B) litota

*C) mubolag’a

D) o’xshatish

44. Bolalarning marosim qo’shiqlari berilgan qatorni ko’rsating.

A) “Shox moylar”, “Boychechak”

*B) “Yo ramazon”, “Boychechak”

C) “Yas-yusun”, “Choy momo”

D) “Navro’z”, “Boychechak”

45. Xalq og’zaki ijodining qaysi janri uydirma gapga asoslangan hikoyani anglatadi?

A) rivoyat

B) maqol

*C) afsona

D) topishmoq

46. Afsonalarning tematik tasnifi to’g’ri ko’rsatilgan qatorni belgilang.

*A) toponimik, diniy va tarixiy afsonalar

B) toponimik, oronimik va diniy afsonalar

C) diniy, tarixiy va oykonimik afsonalar

D) gidronimik, toponimik, oronimik, oykonimik, tarixiy afsonalar

47. Qaysi qatorda etnotoponimik rivoyatlarga xos xususiyatlar ko'rsatilgan?

*A) urug', qavm, qabila, jamoa, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan joy nomlari va ular nomlari bilan bog'liq joy nomlari

B) dengizlar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar, ariqlar, buloqlar kabi suv obektlarining paydo bo'lishi, nomlanishi va etimologiyasini ixcham syujetlar asosida izohlashga xizmat qiladigan rivoyatlar

C) ma'lum bir geografik makonda joylashgan shahar, qishloq, posyolka, ovul mahalla nomlarining kelib chiqishi va etimologiyasini izohlovchi kichik nasriy asarlar

D) A va S javoblar

48. "Do'st achitib gapirar, dushman – kuldirib" maqolida qaysi badiiy – tasviriy vosita qo'llangan?

A) istiora

*B) tazod

C) snekdoxa

D) mubolag'a

49. Olma guli gul emas,

Taqsam chekkamda turmas, - ushbu misralardagi "olma guli" qanday ramz ma'nosida qo'llanmoqda?

A) sevgi, yor tanlash

*B) yolg'on, o'tkinchi sevgi

C) meva nomi ma'nosida

D) sevgi va o'tkinchi sevgi

50. Yorim keladi yashnab,

Zar kokilini tashlab.

Xipcha belini ushlab,

Shakar labini tishlab, - ushbu misralarda tasvirlangan zar, xipcha, shakar qaysi badiiy vosita ma'nosida qo'llanmoqda?

*A) epitet

B) o'xshatish

C) parallelizm

D) mubolag'a

51. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi qaysi davrni o'z ichiga oladi?

A) 2 yoshdan 7 yoshgacha

B) 7 yoshdan 11-12 yoshgacha

*C) 13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha

D) 10 yoshdan 15 yoshgacha

52. Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a

Tun kuningga aylagali nurposh

Birisin oy angla, birisin quyosh..., ushbu misralar Alisher Navoiyning qaysi asaridan olingan va uning asosiy g'oyasini ko'rsating?

A) Alisher Navoiy "Farxod va Shirin" ota-onani sevishlik, ularni hurmat qilishlik

*B) Alisher Navoiy "Hayratul-Abror" yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularga mehr-muxabbatli bo'lishga chaqirish

- C) Alisher Navoiy “Layli va Majnun” ota-onaga mehr-muruvvat ko’rsatishlik
- D) Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub” ota-onani oy bilan quyoshga qiyoslash burchi qayd etilgan

53. A. Navoiyning qaysi asaridagi hikoyatlarning birida yolg’on so’zlashning yomon oqibati ovchining tuzog’iga tushgan obraz misolida hikoya qilinadi?

- *A) “Hayratul-abror”, “SHer bilan Durroj”da Durroj obrazi misolida
- B) “Farxod va Shirin”. Shirinning Farxodga maktuyuida Shirin obrazi misolida
- C) “Layli va Majnun”. Otasi Majnunni ishq dashtidan keltirib, Ka’baga olib borganida Majnun obrazi misolida
- D) A va V javoblar

54. “Zarbulmasal asari” qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Furqat
- B) Muqimiy
- *C) Gulxaniy
- D) Xamza

55. “Zarbulmasal” dagi qaysi obrazlarning xatti-xarakatlari ochko’z va qonxo’r bo’ri, aldamchi va shayton tulkilarga o’xshatiladi?

- A) Ko’rqush, Sho’ranul
- B) Hulxud, Kulonkirsulton
- C) Malik Shohim, Ko’rqush
- *D) Yapaloqqush, Boyo’g’li

56. Gulxaniyning qaysi masalida hunar va hunar ahli ulug’lanadi?

- A) “Tuya bilan bo’taloq”
- B) “Toshbaqa bilan chayon”
- *C) “Maymun bilan najjor”
- D) A va V javoblarda

57. Qaysi ijodkor birinchi va ikkinchi sinf o’quvchilari uchun “Yengil adabiyot”, “Ahloq hikoyalari” kabi o’qish kitobini tuzadi?

- *A) Hamza
- B) A. Avloniy
- C) Behbudiy
- D) A. Qodiriy

58. ... Olim bo’lsak qancha biz,

Har bidatni yanchamiz.

Jahl otli dushmanni,

Ko’ksina tig’ sanchamiz, - ushbu parcha qaysi adib qalamiga mansub?

- A) A. Avloniy
- B) Furqat
- *C) Hamza
- D) Cho’lpon

59. “Toshbaqa bilan Chayon” masali Gulxaniydan bosh9qa yana qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Alisher Navoiy
- *B) Hamza
- C) A. Avloniy
- D) Furqat

60. “Shum bola”, “Tirilgan murda”, “Yodgor” kabi asarlari bilan bolalar adabiyoti nasrining yuksalishiga xizmat qilgan adibni ko’rsating.

- A) Oybek
- B) A. Avloniy
- *C) G’. G’ulom
- D) A. Qahhor

61. G’. G’ulomning ikkinchi jahon urushi yillarida yetim qolgan bolalarga vatanparvarlik, qardoshlik, insonparvarlik his-tuyg’ulari tasvirlangan she’rini toping.

- A) “Navqiron naslimiz sinov oldida”
- B) “Bari seniki”
- *C) “Sen yetim emassan”
- D) “Nortojining kurak tishi”

62. A. Avloniy qalamiga mansub qaysi asar Yusuf xos Xojibning “Qutadg’u bilig”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbubul-qulub” tipidagi o’ziga xos tarbiyaviy asar?

- A) “Tulki ila qarg’a”
- B) “Advokatlik osonmi?”
- *C) “Turkiy guliston yoxud ahloq”
- D) “Ikkinchi muallim”

63. A. Avloniyning boshlang’ich sinf o’quvchilari hayotidan olingan, ishyoqmaslik, dangasa bolaning qalbida o’qishga muhabbat uyg’onishi umumiy yo’sinda bayon etilgan she’rini ko’rsating.

- *A) “Maktab bolasi”
- B) “Pinak”
- C) “Bahor keldi”
- D) “Bola ila gul”

64. G’afur G’ulom qaysi asarida bolalarni kelajagimizning ishongan kishilari – “zamonlar tongining chiroqlari” deb tasvirlaydi?

- *A) “Oltin medal”
- B) “Bari seniki”
- C) “Bir g’uncha ochilguncha”
- D) “Siz mening yoshligimsiz”

65. G’.G’ulomning qaysi asarida xalq og’zaki ijodi an’analari ruhi va avtobiografik janr unsurlari birikib ketgan?

- A) “Netay”
- *B) “Shum bola”
- C) “Yodgor”
- D) “Tirilgan murda”

66. “Shum bola” qissasidagi shum bola do’stlarining ismi to’g’ri ko’rsatilgan qatorni toping.

- *A) Omon va Yo’ldosh
- B) Zafar va Netay
- C) Omon va Obid
- D) Yo’ldosh va Karim

67. Oybekning kichik yoshdagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan yozilgan asari va uning qahramoni ismini ko'rsating.

- A) "Axmadjon bog'bon", Axmadjon
- B) "Zafar va Zahro", Zafar
- *C) "Qonli barmoqlar", Ali
- D) "Odobli Tursun", Tursun

68. Oybekning Alisher Navoiy bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi asarining nomi.

- A) "Navoiy"
- B) "Guli va Navoiy"
- *C) "Alisherning yoshligi"
- D) "Guli va Navoiy", "Navoiy"

69. "Bolalaik" asarida Musavoyning tengqurlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- *A) Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Xoji, Sobir
- B) Turg'un, Komil, Abror, Qodir, A'zam
- C) Qodir, Rustam, Hoji, Akbar, Turg'un
- D) AHmad, Rustam, Qodir, Akbar, Turg'un

70. Oybekning qaysi asarida Pokistondagi dehqon va ishchi oilalari, ularning bolalarining og'ir va azob-uqubatlarga to'la hayoti tasvirlangan?

- A) "Bolalik"
- V) "Alisherning yoshligi"
- S) "Qonli barchoqlar"
- D) "Zafar va Zahro "

71. Masalga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

A) ta'limiy-ahloqiy, didaktik, kinoyaviy xarakterdagi kichik xajmli she'riy yoxud nasriy asar

B) odamlarning ayrim nuqsonlari, ijtimoiy munosabatlardagi nobopliklar allegorik obrazlar axloqiy o'gitlar targ'ib etiladi

C) inson hayotining dramatik lahzalari va poetik nuqtalarini ko'tarinki ruhda ifodalovchi rivoyaviy asar

*D) A va V javoblar

72. Berilgan qaysi javoblarda masal hikoyaga xos asar ko'rsatilgan?

- *A) "Toshbaqa bilan Chayon"
- B) "Zarbulmasal"
- C) "Oyna va Maymun"
- D) "Yolg'onchi To'ti"

73. Lirik-epik asarlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

- A) hikoya, poema, masal, roman
- *B) poema, ballada, masal, she'riy roman
- C) novella, ballada, poema, masal
- D) ruboiy, ballada, drama, roman

74. Dramatik turga xos janrlarni belgilang.

- A) tragediya, novella, poema
- *B) drama, komediya, tragediya
- C) satira, drama, yumor

D) komediya, drama, masal

75. Inson hayotining dramatik momentlari va poetik nuqtalarini ko'tarinki ruhda ifodallovchi rivoyaviy (ixcham) she'riy asar, qalb tug'yoni qaysi janrning o'ziga xos belgilari hisoblanadi?

- A) poema
- B) masal
- *C) ballada
- D) hikoya

76. Masal-ertak janriga xos asarni ko'rsating.

- *A) "Zarbulmasal"
- B) "Toshbaqa bilan Chayon"
- C) "Yolg'onchi To'ti"
- D) "Oyna va Maymun"

77. Bolalarning Ona – Vatan oldidagi muqaddas burchi, fidoyiligi, e'tiqodi va sadoqati Uyg'unning qaysi asarida ko'rsatilgan?

- *A) "Qasos"
- B) "Qizaloqning o'limi"
- C) "Bulbulga"
- D) "Laylak"

78. ...Bo'yi novcha,

Tumshug'i bor tarnovcha.

Lapanglaydi uchganda,

Uyasidan ko'chganda, - ushbu parcha Uyg'unning qaysi she'ridan olingan, unda nimaning tasviri berilyapti?

- A) "Guldor kapalak", Kapalak
- *B) "Laylak", Laylak
- C) "Qushlar keldi", Qushlar
- D) "Boychechak", Laylak

79. Uyg'unning folklor motivlari asosida yaratilgan ertak-dostonini ko'rsating.

- *A) "Yolg'onchining jazosi"
- B) "Handalak"
- C) "Yoz"
- D) "Boychechak"

80. ...Shunda toza sevindim,

Yozda qilgan ishimga.

Uni qand, asal qilgan

Yaxshi parvarishimga, - ushbu parcha Uyg'unning qaysi she'ridan olingan va unda qaysi poliz ekini tasvirlanayapti?

- A) "Tarvuz", Tarvuz
- B) "Yoz", Qovun tarvuz
- *C) "Handalak", Xandalak
- D) "Ishkomda uzum pishdi", uzum

81. H. Olimjon qalamiga mansub asarlar berilgan qatorni belgilang.

- *A) "Bolalik", "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg"
- B) "Boychechak", "Laylak", "Globus", "Zafar va Zahro"
- C) "Yolg'onchi", "Zangori gilam", "Oygul bilan Baxtiyor"

D) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg”, “Temirlar o’yini”, “Globus”

82. Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda.

Ko’p ertak eshitgandim,

So’ylab berardi buvim..., - ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub?

A) Oybek

*B) H. Olimjon

C) Uyg’un

D) Sarvar Azimov

83. H. Olimjonning xalq og’zaki ijodi asarlari ta’sirida yaratgan asarlarini ko’rsating.

A) “Bolalik”, “Jangchi Tursun”

B) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Zafar doston”

*C) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Hulkarning shehri”

D) “Ona va o’g’il”, “Hulkarning she’ri”

84. H. Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” da qaysi obrazni xalq qahramonlariga xos shaxs sifatida “Chinorday qomatdor”, “Ko’kragi oftobni yashirgan”, “Qilichday o’tkir, Rustam kabi zo’r” kabi epitetlar bilan tasvirlaydi?

A) Darxonni

B) Oygulni

C) Tarlonni

*D) Baxtiyorni

85. “Men Zafarni o’ylasam uni nuqul shod-xurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she’r durdonalari yog’ilayotganday ko’raman”, - ushbu Zafar Diyor haqidagi tasvir kimning qalamiga tegishli?

A) Uyg’un

B) H. Olimjon

C) Pulat Mo’min

D) Hakim Nozir

86. Z. Diyor qalamiga mansub asarlar berilgan qatorni belgilang.

A) “Qurilish kuylari”, “Boychechak”, “Tilsiz o’rtoq”, “Yuksak tog’, keng o’tloq va mard o’rtoq haqida qissa”

*B) “Yuksak tog’, keng o’tloq va mard o’rtoq haqida qissa”, “Binafsha”, “Navbahor”, “Kapalak”

C) “Navbahor”, “Kapalak”, “Bolalik”, “Semurg”

D) “Yolg’onchi”, “Laylak”, “Navbahor”, “Tilsiz o’rtoq”

87. Temirlar jarang-jarang,

O’ynashib diring-diring.

Deyishar: “yuring-yuring”

Tushdilar qiziq-tanqa

Sakrashar assa-assa, - Q. Muhammadiyning “Temirlar o’yini” she’rida temirlar qaysi badiiy tasvir vositasi yordamida tasvirlanyapti?

*A) jonlashtirish

B) o’xshatish

- C) sifatlash
- D) mubolag'a

88. Q. Muhammadiyning a'lochi o'quvchilar xaqida yaratgan she'rlari berilgan qatorni toping.

- A) "Etik", "Mirob", "A'lochi Sodiq", "Besh"
- B) "Nomsiz erkatoylar haqida", "Besh", "Yasha", "Omon!"
- *C) "A'lochi Sodiq", "Sinov", "Mening Orzum", "Besh"
- D) "Solijonning darsxonasi", "Etik", "Mamajon shofyor"

89. Badiiy adabiyot tilida voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlash-izohlash, tavsiflash usuli qaysi badiiy tasvir vositasiga xos?

- A) mubolag'a
- B) o'xshatish
- *C) sifatlash
- D) metafora

90. Odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usuli ...

- *A) jonlantirish
- B) o'xshatish
- C) sifatlash
- D) snekdota

**91. Zaynabning ham toza, osuda,
Dog' ko'rmagan mas'um qalbida
Sevgi yaproq yozib qolibdi**

Va fikriga g'avg'o solibdi, - H. Olimjonning "Zaynab va Omon" dostonidan olingan ushbu parchadagi "toza, osuda", "Dog' ko'rmagan mas'um qalbida" kabi so'zlar qaysi tasvir vositasi hisoblanadi?

- A) o'xshatish
- B) metafora
- C) sinekdoxa
- *D) sifatlash

92. S. Jo'raning "Tinish belgilarning majlisi" she'rida undov, chiziq, nuqtani qaysi o'xshatish vositalari yordamida tasvirlashga harakat qilgan?

- *A) "undov" – mirzaterak, "chiziq" – gugurt, "nuqta" – koptok
- B) "undov" – gugurt, "chiziq" – mirzaterak, "nuqta" – qiziqchi
- C) "undov" – qiziqchi, "chiziq" – gugurt, "nuqta" – o'roqcha
- D) A va S javoblar

93. Sh. Sa'dullaning birinchi she'rlar to'plamining nomi va uning chop ettirilgan yili.

- *A) 1932 yilda "Hayqiriq"
- B) 1935 yilda "Uch ayiq"
- C) 1939 yilda "Yoriltosh"
- D) 1935-1936 yilda "Ayyor chumchuq"

**94. Milt etib chiqdi quyosh,
Dedi: - Do'stlar, qish odosh.
Ko'rsak yo'q qora bulut,**

Yer yuzi ko'k gilam – o't, - Sh. Sa'dullaning "to'rt fasl" she'ridan olingan ushbu parchada qaysi fasl tasvirlanmoqda?

- A) Yoz
- B) Qish
- *C) Bahor
- D) Kuz

95. Sh. Sa'dullaning xalq ertaklari asosida yaratgan asarlari berilgan qatorni ko'rsating.

- A) "Egizak", "Ulug' shahar", "No'xat polvon", "Laqma it"
- B) "Kachal polvon", "Aziz qishlog'im", "Ayyor chumchuq"
- C) "Ism qo'yilmagan xat", "Ulug' shahar", "No'xat polvon"
- D) "No'xat polvon", "Laqma it", "CHol bilan bo'ri", "Ayyor chumchuq"

96. P.Mo'minning ertak-pesalari berilgan qatorni ko'rsating.

- *A) "Qovoqvoy va Chavoqvoy", "So'qatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi"
- B) "Mehribonim, oyijon!", "Alla bilan Jalla", "Oltin nay"
- C) "Dona bola", "Xursandmisiz?", "Unutgan o'g'il"
- D) "Ziyrak fil va ziqna boqqol", "Yer chopildi va javob topildi", "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy"

97. X.To'xtaboevning "Sariq devning o'limi" sarguzasht romani qismlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

- A) "o'rtoq polkovnik", "Sariq devning minib", "Kichkina rais"
- *B) "o'rtoq polkovnik", "Sariq devni quvib", "Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgan"
- C) "Xarakteristika", "Maxsus topshiriq", "Sariq devni quvib"
- D) "Sariq devni quvib", "Maxsus topshiriq", "Kichkina rais"

98. "Xayolparastlar", "Oq kabutar", "Sabil qoldi", "O'g'limni qaytarib beringlar" dramalari qaysi adib qalamiga mansub?

- A) P.Mo'min
- B) H.Muhammadiy
- *C) F.Musajonov
- D) Ilyos Muslim

99. Sarguzasht, ilmiy-fantastika janrlarida yozilgan asarlar qatorini toping.

- *A) "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakatida", "SHom kamari", "0099 nomerli yolg'onchi"
- B) "Sariq devni minib", "Oq buloq", "Xayolparastlar"
- C) "Ali bilan Vali", "SHirin qovunlar mamlakatida", "Sirli xat", "Qasoskorning oltin boshi"
- D) "Muhim topshiriq", "Oq buloq", "0099 nomerli yolg'onchi"

100. Naql termini yaqin va o'rta Sharq xalqlari orasida qanday nom bilan yuritilgan?

- *A) Zarbulmasal
- B) Donolar falsafasi
- C) Topishmoq
- D) Rivoyat